This article provides information on the experience of implementation of the chamber-and-pillar development system for mining of small ore bodies with irregular mineralisation in the Kochbulak gold deposit, and also gives brief information on mining and geological conditions of the deposit and information on the development systems used for mining of ore bodies with different mining and geological characteristics. The conditions of application of the chamber-and-pillar development system are described, the essence of the system, the order of mining of ore bodies, the main parameters of the development system, its advantages and significant disadvantages are presented. Results of investigations which were carried out at Kochbulak mine to increase extraction indexes from mines without increase in prime cost of ore are presented.

Keywords: ore deposit, chamber-pillar mining system, ore body, power, dip angle, ore losses, surrounding rocks, ore excavation, preparation, cleanout, mining system parameters, ventilation, depletion of ore.

Bibliographic list:

1. Rules of technical operation of mines, mines and mines developing deposits of non-ferrous, rare and precious metals. – Tashkent, 2019. – 119 p.
2. Versilov S.O., Razornov Yu.I., Seleznev V.P., Ignatov V.N. On improving the safety of chamber-pillar mining systems when excavating inclined ore deposits // Gornyy informatsionno-analiticheskiy vestnik (Nauchno-tekhnicheskiy zhurnal), 2007. No. 14, pp. 164-167.
3. Smirnov A.A. Features applications of the chamber-pillar development system at the Magnesitovaya mine // Gornyy informatsionno-analiticheskiy vestnik (Nauchno-tekhnicheskiy zhurnal), 2007. No. 5, pp. 291-293.
4. Chemezov E.G. Application of the chamber-pillar development system at great depths in the conditions of the Zhezkazgan deposit // Gornyy informatsionno-analiticheskiy vestnik (Nauchno-tekhnicheskiy zhurnal), 2004, No. 9, pp. 71-72.
5. Fitsak V.V. Effective boundaries of the use of variants of the chamber-pillar development system // Notes of the Mining Institute, Vol.150, part 2. – St. Petersburg, 2002, – pp. 54-56.
6. Vokhmin S.A., Kurchin G.S., Mayorov E.S. On the issue of determining the standard values of losses during the extraction of anhydride by a chamber-colum development system. Bulletin of the Moscow State Technical University named after G.I. Nosov, 2010, No. 1, pp. 10-13.
7. Akbarov T.G., Nishanov A.Sh., Urazov J.D. Rational technology of underground mining of ore bodies of the Kochbulak deposit with uneven mineralization // Universum: technical sciences: scientific journal. - No.12(93), part 3. – Moscow: publishing house "MCNO", 2021, pp. 5-8.
8. Akbarov T.G., Nishanov A.Sh., Urazov J.D., Ashirov Yu.N. Features of underground mining of the Kochbulak gold deposit // International Zhurnal innovatsionnykh nauk i issledovatel'skikh tekhnologiy. Vol. 6, Issue 12. – India, 2021, pp. 904-907.
9. Akbarov T.G., Nishanov A.Sh., Urazov J.D. Rational technologies of underground mining of gold deposits of the Angren region. Monograph. – Tashkent, 2022. – 212 p.

KOCHBULOQ KONI RUDA TANALARINI TAYYORLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH



Akbarov T.G.,

I. Karimov nomidagi ToshDTU
«Ko'mir va qatlamli konlar geotexnologiyasi»
kafedrasini professori, t.f.n.



Nishanov A.Sh.,

«Olmaliq KMK» AJ
Angren kon boshqarmasi «Kochbuloq»
shaxtasi uchastka boshlig'i o'rinbosari



Urazov J.D.,

«Olmaliq KMK» AJ
Angren kon boshqarmasi «Kochbuloq»
shaxtasi bosh muhandisi

Maqolada konchilik korxonalaridagi asosiy muammolardan hisoblangan, ya'ni murakkab kon-texnik sharoitda foydali qazilmalarni qazib olishning dastlabki bosqichidan, tayyorlash usulini to'g'ri tanlash orqali kelajakda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan rudaning sifat va miqdor yo'qotilishlarini oldini olish haqida, Angren kon boshqarmasi Kochbuloq konining 14-ruda tanasini tayyorlash ishlarini takomillashtirish misolida bayon etilgan. Shuningdek maqolada ruda tanasini tayyorlash usullari, ularning asosiy kamchilik va afzalliklari, tayyorlash usulini tanlashga ta'sir etuvchi omillar, tayyorlash usuliga qo'yiladigan talablar hususida so'z boradi.

Tayanch iboralar: ruda tanasi, atrof tog'jinsi, foydali qazilma, kon lahimi, tayyorlash usuli, qazish ishlari, blok, rudaning yo'qotilishi, rudaning sifatizlanishi, ko'tarilma, nimqavat shtreki, qazib olish tizimi, loyiha, zahira.

В данной статье изложена одна из основных проблем горных предприятий на примере совершенствования способа подготовки рудного тела 14 месторождения Кочбулак Ангренского рудоуправления, это необходимость правильного выбора способа подготовки в сложных горнотехнических условиях при начальной стадии разработки полезных ископаемых, что может повлиять на уменьшение количественных и качественных потерь руды при разработке. А также в статье идёт речь о способах подготовки рудных тел, об их основных достоинствах и недостатках, факторах, влияющих на выбор способа подготовки, требованиях к способу подготовки.

Ключевые слова: рудное тело, вмещающие породы, полезное ископаемое, горная выработка, способ подготовки, разработка, блок, потери руды, разубоживание руды, восстающий, подэтажный штрек, система разработки, проект, запас.

Ruda tanasini foydali qazilmalarni qazib olish uchun tayyorlash kon massivining dastlabki zo'riqish holati sharoitida bajariladigan tayyorlash va qirqish ishlari bilan bog'liq [1].

Ruda konlarini qazish ishlariga tayyorlash, tayyorlovchi-qirquvchi lahimlarni o'tishni o'z ichiga oladi. Tayyorlovchi lahimlarga shtreklar, ortlar va blok ko'tarilmalari kiradi.

Tayyorlangan kon uchastkalarida yoki bloklarda rudani qazib olish uchun zarur bo'lgan ishlar amalga oshiriladi, ular qirqish deb ataladi, ularni o'tish esa – qirqish ishlari deyiladi.

Qirqish ishlari tugagandan so'ng blok qazish uchun tayyorlangan hisoblanadi [2, 3].

Tayyorlash ishlarining ruda tanasiga nisbatan joylashishiga ko'ra, konlarni tayyorlash rudali, atrof tog' jinslaridan o'tiladigan va aralash bo'lishi mumkin.

Rudali tayyorlashda barcha tayyorlov lahimlari ruda tanasidan o'tiladi. Ushbu turdagi tayyorlash usuli asosan nishab va yotiq ruda tanalarini qazib olishda, rudani tashish uchun samosvallar yoki konveyerlardan foydalanilganda qo'llaniladi.

Rudali tayyorlashning avfzalligi – tik ruda tanalarini qazishda konni qo'shimcha qidirish va ular bilan bog'liq rudani qazib olish imkoniyati, bu tayyorlov lahimlarini o'tkazish harajatlarni qisman qoplaydi. Rudali tayyorlashning asosiy kamchiliklari: tayyorlov lahimlarining bevosita qazib olish va portlatish ishlari yonida joylashishi tufayli, ularni ushlab turish (mustahkamlash) harajatlarni oshishi; tayyorlovchi lahimlarni ushlab turish uchun qoldirilgan seliklardagi rudaning yo'qotilishidir [2].

Lahimlarni atrof tog' jinslaridan o'tib tayyorlash paytida barcha tayyorlov ishlari ruda tanasidan tashqarida amalga oshiriladi. Tayyorlashning bu usuli qazilgan rudani elektrovozlar yordamida

yetkazishda keng qo'llaniladi, chunki u ruda yotqizigi ostining murakkab gipsometriyasida temir yo'llarining qiyaligini saqlashga bardosh berishga imkon beradi. Atrof tog' jinslaridan o'tib tayyorlashning qo'llanilishi tik ruda tanalarini qazib olishda qavatlar orasidagi ruda yo'qotilishlarini bartaraf etishga imkon beradi.

Atrof tog' jinslaridan o'tib tayyorlashning kamchiliklari: konlarni qazib olishga tayyorlashda tayyorlov lahimlari hajmining ortib ketishi sabab, harajatlarning ko'payishi; lahimlarni o'tish jarayonida bevosita rudani qazib olishning imkoniyati yo'qligi sabab, harajatlarni bir qismini qoplashga imkon bermasligi [3, 4].

Aralash tayyorlash usuli, tayyorlov ishlarining bir qismini ruda tanasidan, ikkinchisini esa atrof tog' jinslaridan o'tilishini nazarda tutadi. Aralash tayyorlash qalin tik ruda konlarini qazib olishda asosiy usul hisoblanadi. Aralash tayyorlash usuli yuqoridagi ikkita usulga nisbatan eng keng tarqalgan usul bo'lib, ularning avfzallik va kamchiliklarini o'z ichiga oladi.

Konlarni tayyorlash usullarini tanlashga bir qator omillar ta'sir qiladi:
– konning geologik sharoitlari – ruda tanasining qalinligi, og'ish burchagi, ruda va atrof tog' jinslarining qattiqligi;

– konning texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlari – konning yillik ishlab chiqarish unumdorligi, qo'llaniladigan qazib olish tizimi, kon uskunalarini va mexanizatsiyalashtirilganlik darajasi, shamollatish sharoitlari va rudaning qiymati.

Bundan tashqari konni tayyorlash usullariga qo'yiladigan bir qancha talablar mavjud, bular:

– qazishga tayyorlangan joylarda (zaboyda) ishlab mahsulot olib borilishini ta'minlash; ming tonna mahsulotga ishlov berish hajmini qisqartirish;

– qazib olishga tayyor zahiralarni, ruda tanasini bloklarga va panellarga bo'lish sxemalari orqali konning qazib olishga tayyor doimiy zahirasini ta'minlab turish;

– qazib olish ishlari olib borilayotgan joylarga odamlarni havfsiz kirish va chiqishini ta'minlash, uskunalar va materiallarni havfsiz yetkazib berish orqali qazib olish ishlarini qulay va havfsiz olib borish;

– qazib olingan rudani yuklash, tashish va yer yuzasiga yetkazib berishning sodda va oson sxemalarda bo'lishini ta'minlash;

– qazish ishlari olib borilayotgan joylarni shamollatishni yengillashtirish va soddalashtirish;

– tayyorlov lahimlarini ushlab turish (mustahkamlash) harajatlarini kamaytirish;

– tayyorlov lahimlarini saqlash uchun qoldirilgan seliklardagi yo'qotilishlarni minimal darajaga tushirish.

O'zbekiston Respublikasining Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ ning Angren kon boshqarmasiga qarashli "Kochbuloq" shaxtasi Qurama tog' tizmasining shimoliy tog' yon-bag'irlari etaklarida, Nishbosh va Go'shtsoy daryolari irmog'ining oralig'ida joylashgan bo'lib, 35 km. ga yaqin maydonni o'z ichiga oladi [5, 6, 7].

Kochbuloq koni murakkab vulkonogen-tektonik faollik natijasida yuzaga kelgan bo'lib, konda o'ziga xos yoriqlar va buzilishlar paydo bo'lishi natijasida oltin menirallashuvi joylashishining strukturaviy nazoratini belgilab bergan.

Rudali zonalar ichida bir qancha ruda tanalari joylashgan bo'lib, konni o'zlashtirish davrida 32 ta tektonik struktura bilan chegaralangan va 200 dan ortiq kvars tomirlari va kvars zonalarini birlashtirgan 23 ta ruda zonalarini aniqlangan [8].

Kochbuloq konida asosiy qo'llaniladigan konni tayyorlash usuli, bu rudali tayyorlash hisoblanadi.

Gorizontlardagi konni tayyorlash ishlari atrof tog' jinslaridan o'tilgan tashish shtreklarini ruda tanasi yo'nalishi bo'ylab o'tish orqali amalga oshiriladi, ya'ni tashish shtreklari atrof tog' jinslaridan o'tiladi. Atrof tog' jinslaridan o'tilgan tashish shtreklaridan ruda tanasini kesib o'tuvchi zaezdlar o'tish orqali ruda tanasini bloklar va panellarga bo'lib olinadi. Bunda zaezdlar oralig'i 50-100 metrni tashkil qiladi.

Bloklardagi barcha tayyorlash va qirqish ishlari ruda tanasidan, ya'ni rudadan o'tiladi va bu kon lahimlariga quyidagilar kiradi:

– ko'tarilmalar, ular zaezdning ikki tomonidan o'tilib, biri yurish bo'linmasi va ikkinchisi qazib olingan rudani o'z og'irligi ta'sirida pastga tushirish uchun xizmat qiladi (rudatushirgich);

– yo'lak (xodok) lar; shamollatish shtreklari; shamollatish va yurish ko'tarilmalari; nimqavat shtreklari, hamda kesuvchi o'yiqlar.

Yuqoridagi barcha tayyorlovchi va qirquvchi lahimlarni o'tish ishlari yakunlangandan so'ng bevosita bloklarda rudani qazib olish ishlari boshlanadi.

Kochbuloq konida hozirgi kunda kamera-ustunli, nimqavat shtreklar va nimqavat ortlar bilan qazib olish tizimlaridan keng foydalanilib kelinmoqda [9].

Ushbu maqolada Kochbuloq konining +880 m gorizontidagi 14-ruda tanasini tayyorlash ishlarini soddalashtirish, takomillashtirish, tayyorlash va qazish ishlarini olib borish natijasida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar xususida so'z boradi.

Konning 14-ruda tanasi janubi-sharqqa 65-70° og'ish burchagi ostida, mahalliyashgan 17-strukturasi shimoli-sharqda joylashgan. Ruda tanasining janubiy va markaziy qismlarida sharq tomonga teskari og'ish kuzatilgan. Ruda tanasining o'rtacha qalinligi 1,3 metrni tashkil qiladi. Ruda tanasining morfologik xususiyatlari va tuzilishi tosh yoriqlari tizimining rivojlanish xususiyatlari bilan belgilanadi.

Ruda tomirlari kvarslashgan puch tog' jinslari va sulfidli kvars liznalar bilan ifodalanganadi.

Ruda tanasining yotish bo'yicha cho'ziqligi sanoat chegaralarining 100 m dan 630 m gacha bo'lgan masofalarda kuzatilgan bo'lib, azimuti 340-30° ni tashkil qiladi. Ruda tanasi 355 m chuqurlikkacha o'rganilgan.

Ruda tanasi va atrof tog' jinslari o'rtacha qattqlikka ega bo'lib, solishtirma og'irligi 2,63 t/m³ ni tashkil qiladi.

Kochbuloq konining 914-8 bloki bilan +880 m gorizontdagi 14-ruda tanasi loyihaga asosan nimqavat shtrekli qazib olish tizimi bilan qazib olish rejalashtirilgan bo'lib, bunda blok balandligi gorizontlar orasidagi masofaga teng bo'lib – 50 metrni tashkil qiladi, blok uzunligi esa – 50 m etib belgilangan, blok nimqavatlarga bo'lingan holda qazib olinadi, ularning orasidagi balalik 6-8 m etib olingan. Ruda tanasi bloklarga ikki tomonidan o'tiladigan zaezd va ko'tarilmalar yordamida bo'linadi.

914-8 blokidagi qazib olish ishlarini olib borish bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi, ya'ni tayyorlovchi lahimlarning rudadan o'tilganligi tufayli bu lahimlarni ushlab turish (mustahkamlash) harajatlari ortib ketishi, ayrim hollarda ushlab turishning imkoni yo'qligi sabab 914-8 blokini qazib olishning mahalliy loyahasiga bir necha marotaba qayta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishiga sabab bo'ldi. Buning asosiy sabablaridan biri ruda tushurish uchun xizmat qiladigan ko'tarilma yuzasining keskin kengayib ketishidir. Bu esa o'z navbatida nimqavatlarini o'tishni qiyinlashtirib va bir qator xato va kamchiliklarni yuzaga keltirdi:

– tayyorlov lahimlari hajmining ortib ketishiga;

– tayyorlov lahimlarini ushlab turish (mustahkamlash) ga ketgan harajatlarni keskin ortib ketishiga;

– odamlarni qazib olish ishlari olib borilayotgan joylarga (zaboyga) kirish va chiqish havfsizligini ta'minlashning, ayrim hollarda imkoni yo'qligiga;

– qazish ishlari ishlatiladigan uskuna va materiallarni kovjoyga havfsiz yetkazishning imkoni yo'qligiga;

– blokni tayyorlashga ketgan vaqtning ko'pligi natijasida konning oylik va yillik ishlab chiqarish unumdorligiga ta'siriga;

– tayyorlov kon lahimlari rudadan o'tilganligi va ularda qoldirilgan seliklarni havflilik darajasi ortib ketganligi tufayli qazib olishning imkoni yo'qligi tufayli, yo'qotilishlarning ortib ketishiga sabab bo'ldi.

Dastlabki loyihaga asosan, 914-8 blokini tayyorlash ishlari +880 m gorizontdagi atrof tog' jinsidan o'tilgan shtrekdan zaezd ruda tanasini kesib o'tguncha o'tildi. Zaezddan ikkita ko'tarilma ruda bilan 1-nimqavatgacha o'tildi. Bu kon lahimlarini xar 8 metrdan birlashtirib turuvchi xodok (yo'lak) larni, nimqavatlarini o'tish orqali blokni 5 ta qismga bo'lib olib, blokni nimqavat shtreklar bilan qazib olish tizimi orqali qazish ishlari rejalashtirilgan edi.

Yuqoridagi gorizontga blokdan 2-zahira chiqish yo'li esa, 1-nimqavatdan o'tilgan shamollatish ko'tarilmasi uchun nisha, shamollatish ko'tarilmasi va shamollatish yo'lagini o'tish orqali amalga oshirildi. 1- va 2-nimqavatlarda qazish ishlari tugatilgandan so'ng, ruda tushirgich (ruda tushirish uchun xizmat qiluvchi ko'tarilma) ning yuzasi keskin kengayib ketishi natijasida 3-nimqavatda qazish ishlarini olib borish imkoniyati bo'lmadi.

Shundan so'ng loyihaga o'zgartirish kiritilib, zaezddan atrof tog' jinslaridan sidirg'alash shtreki o'tildi. Bu sidirg'alash shtrekidan ruda tanasi bo'ylab 3-nimqavat shtrekigacha ikkita ko'tarilma o'tish rejalashtirildi. Ko'tarilmalarni o'tish jarayonida oldin o'tilgan ruda tushirgichga ko'tarilmaning 10 metrida qo'shib ketishi kuzatildi. Buning asosiy sababi, oldin o'tilgan ko'tarilmaning yuzasi keskin kengayib ketganidir, natijada ishlarning behatar olib borilishini hisobga olgan holda loyihaga yana o'zgartirish kiritildi.

Yangi loyihaga asosan ko'tarilma atrof tog' jinslaridan o'tiladigan va xar 8 metrdan birlashtiruvchi yo'laklar o'tiladigan bo'ldi. Shu tariqa 3- va 2-nimqavatlarini qazib olish ishlari o'zgartirilgan loyiha asosida amalga oshirildi. 2-nimqavatni qazib olish ishlari yakunlanishi arafasida, 1-nimqavatga tushishdan oldin ruda tushirgichning yuzasi, ikki nimqavat oralig'i yana kengayib ketishi natijasida 1-nimqavatni o'tish va unda qazish ishlarini olib borish imkoniyati yana bir bor yo'qqa chiqdi. Bu holat loyihani yana bir bor qayta ko'rib chiqilishiga sabab bo'ldi.

Qayta ko'rib chiqilgan loyihaga asosan sidirg'alash shtreki davom ettiriladigan bo'ldi, ya'ni ruda tanasining yotish uzunligi yo'nalishi bo'ylab

blok chegarasigacha o'tilib, so'ngra shtrekning oxiridan kesuvchi o'yoqlar yordamida 2-nimqavatgacha ko'tarilib, bu qiruvchi lahimlardan shpurlar majmui burg'ulanib, portlatish ishlarini amalga oshirish ko'zda tutildi. Hosil qilingan shpurlarni baravariga portlatish evaziga blokda qazish ishlarini olib borish rejalashtirildi.

Yuqoridagi barcha loyihalarning kamchiliklari blokda asosiy qazib olish ishlarini yakunlanganidan so'ng, blokda rudadan o'tilgan ko'tarilmalarni ushlab turish (saqlash) uchun qoldirilgan seliklarni qazib olish jarayonida ko'rindi.

Bular:

- ruda tushirgichni jihozlashda (yurish bo'linmasiga) kon ishlarini olib borishning havfilik darajasi ortishi;

- jihozlash uchun ketgan yog'och mustahkamlagichlarning sarfini ortishi, ya'ni blokda ruda tushirgichlar va ko'tarilmalarni xar 2 metrda butun ko'tarilish balandligi bo'ylab paloklarni o'rnatishga ketgan yog'och mustahkamlagichlarning sarfini ortib ketishiga olib keldi;

- blokda o'tilgan ko'tarilma va ruda tushirgichlarni ushlab turuvchi (saqlovchi) seliklarda shpurlar burg'ulangandan so'ng, burg'ulangan shpurlarni baravariga portlatish oqibatida portlatish ishlarini boshqara olmaslik natijasida portlamay qolgan shpurlarning qolib ketishi havfi tug'ildi, bu esa o'z navbatida seliklarning qolib ketishiga va seliklarda qo'yotilishlarning ayrim hollarda 50% dan oshib ketishiga olib keldi;

- blokda seliklar baravariga potlatilgandan so'ng atrof tog' jinslari qo'shilishi natijasida rudaning sifatsizlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

914-8 blokni qazib olishga tayyorlash jarayonidagi barcha loyihalar asosida o'tilgan tayyorlov lahimlari 1-jadvalda keltirilgan.

914-8 blokda balans zahiralarni 3750 m³ yoki 9863 tonnanani tashkil qilishini hisobga olsak, tayyorlov ishlarining solishtirma hajmi blokda tayyorlov lahimlarining hajmi balans zahirasining hajmiga nisbatiga teng bo'lib, quyidagini tashkil qiladi [10,11]:

$$V = \frac{V_n}{V_{bl}} \cdot 100 = \frac{1130}{3750} \cdot 100 = 30,1\%,$$

bu yerda, V_n – blokda tayyorlov lahimlarining umumiy hajmi, m³;

V_{bl} – blokda umumiy hajm, m³.

$$V_{bl} = m_p \cdot H_e \cdot L_{bl} = 1,5 \cdot 50 \cdot 50 = 3750 m^3.$$

Blokda tayyorlash ishlarining koeffitsienti esa quyidagiga teng bo'ladi [9,10]:

$$K_l = \frac{L_n}{Q} \cdot 1000 = \frac{275}{9863} \cdot 1000 = 27,9 \text{ m/t},$$

$$K_v = \frac{V_n}{Q} \cdot 1000 = \frac{1130}{9863} \cdot 1000 = 114 \text{ m}^3/\text{t},$$

bu yerda, L_n – tayyorlovchi lahimlarning uzunligi, m;

Q – blokda rudaning sanoat zahirasi, t.

Blokda tayyorlash ishlarini davomida qazib olingan ruda ulushi quyidagiga teng:

$$\delta_n = \frac{Q_n}{Q} = \frac{1656}{9863} = 0,17$$

bu yerda, Q_n – tayyorlash ishlarini davomida qazib olingan ruda miqdori, t.

Kochbuloq konidagi tayyorlov lahimlarini o'tishga ketgan harajatlarni hozirgi kun hisobi bilan oladigan bo'lsak, ya'ni 1 m³ tayyorlov lahimlarini o'tishga ketgan harajatlarni 2063219,16 so'mni tashkil qiladi. Blokda tayyorlov lahimlarining umumiy hajmi 1130 m³ ni tashkil qilishini hisobga olsak, bu harajatlarni 2331,437 mln so'mni tashkil qiladi.

Amaldagi loyihalarning kamchiliklarini hisobga olib, +880 m gorizontalidagi 914-8 blokni qazib olishga tayyorlashning samarali va havfsiz usulini, ya'ni atrof tog' jinslaridan o'tish usulini ko'rib chiqamiz.

Bu usulda blokni tayyorlashda +880 m gorizontalidagi atrof tog' jinsidan o'tilgan shtrekdan zaezd ruda tanasigacha o'tilib, ular xar 8 metrda yo'lak (xodok) lar, sidirgalash ortlari o'tish orqali 5 ta nimqavatlariga bo'linadi. Blokdan shamollatish shtreki, shamollatish ko'tarilmasi uchun nisha, shamollatish ko'tarilmasi va shamollatish yo'lagi (xodok) lahimlarini o'tish orqali 2-zahira chiqish yo'lini ta'minlaymiz. Lahimlarni o'tib blokni qazib olish ishlariga tayyorlab olganimizdan so'ng qazish ishlarini boshlaymiz.

Qazib olish ishlarini 1-nimqavatdan 5-nimqavatgacha yuqoridan pastga qarab tushish tartibi bilan, blokni nimqavat shtreklar bilan qazib olish tizimi orqali qazish ishlarini olib boriladi. 5-nimqavatda qazish ishlarini yakunlangandan sung zaezd ruda tanasini kesib o'tguncha davom ettiriladi. Zaezddan ruda tanasining yotish uzunligi yo'nalishi bo'ylab sidirg'alash shtreki o'tiladi.

Sidirg'alash shtrekida ham, qazib olish ishlarini nimqavat shtreklar bilan qazib olish tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu usulda blokni qazib olishga tayyorlaganimizda ko'tarilma va ruda tushirgichlar, boshqa tayyorlovchi lahimlarni saqlab turish uchun seliklar qoldirilmaydi. Blokni qazib olish uchun tayyorlangan balans zahiralarni ortiqcha qiyinchiliklarsiz rudaning sifatsizlanishi va yo'qotilishlarini kamaytirgan holda to'liq qazib olinadi.

914-8 blokning taklif qilinayotgan tayyorlash usuli bilan tayyorlangandagi kon lahimlarining o'lchamlari va hajmlari 2-jadvalda ko'rsatilgan. Taklif qilinayotgan usulda, ya'ni atrof tog' jinslaridan tayyorlov lahimlarini o'tib blokni tayyorlash usuli natijasida qator afzalliklarga ega bo'lamiz:

- tayyorlov lahimlarini ushlab turish ortiqcha qiyinchiliklarsiz amalga oshiriladi;
- mustahkamlashga ketgan harajatlarni sezilarli kamayadi;
- balans zahiralarni yo'qotilishlarsiz qazib olish imkoniyati oshadi;
- rudaning sifatsizlanishini nazorat qilish imkoniyati paydo bo'ladi;
- qazib olish ishlarini havfsiz olib borish darajasi ortadi;

1-jadval

914-8 blokning tayyorlov lahimlarini rudali usul bilan o'tilgandagi kon lahimlarining o'lchamlari va hajmlari

T/r	Kon lahimlari nomlari	Rudadan o'tilgan, m	Atrof tog' jinslaridan o'tilgan, m	Umumiy o'tilgan, m	Rudadan o'tilgan, m ³	Atrof tog' jinslaridan o'tilgan, m ³	Umumiy o'tilgan, m ³
1.	Zaezd	1,5	18,5	20	10,5	129,5	140
2.	Ko'tarilma nishasi	6	9	15	24	36	60
3.	Ko'tarilma	48	30	78	230	120	350
4.	Ruda tushirgich	62	6	68	248	24	272
5.	Shamollatish ko'tarilmasi nishasi	-	3	3	-	9	9
6.	Shamollatish ko'tarilmasi	-	9	9	-	27	27
7.	Shamollatish yo'lagi	-	4	4	-	12	12
8.	Sidirg'alash shtreki	-	17	17	-	68	68
9.	Sidirg'alash shtreki nishasi	-	3	3	-	18	18
10.	Yo'laklar	39	19	58	117	57	174
	Jami	156,5	118,5	275	629,5	500,5	1130

2- jadval

914-8 blokni tayyorlov lahimlarini atrof tog' jinslaridan o'tish usuli bilan tayyorlangandagi kon lahimlarining o'lchamlari va hajmlari

T/r	Kon lahimlari nomlari	Atrof tog' jinslaridan o'tilgan, m	Umumiy o'tilgan, m	Atrof tog' jinslaridan o'tilgan, m ³	Umumiy o'tilgan, m ³
1.	Zaezd	11	11	77	77
2.	Ko'tarilmalar nishasi	6	6	24	24
3.	Ko'tarilma	38	38	152	152
4.	Ruda tushirgich	38	38	152	152
5.	Yo'laklar	25	25	75	75
6.	Shamollatish shtreki	10	10	40	40
7.	Shamollatish ko'tarilma nishasi	3	3	9	9
8.	Shamollatish ko'tarilmasi	9	9	27	27
9.	Shamollatish yo'lagi	5	5	15	15
10.	Sidirg'alash uskunasi nishasi	3	3	18	18
Jami		148	148	589	589

– blokni tayyorlashga sarflangan vaqtning kamligi tufayli konning ishlab chiqarish unumdorligi keskin darajada ortib ketadi.

Ko'rib chiqilayotgan tayyorlov usulidagi blokni tayyorlov ishlarining solishtirma hajmi quyidagiga teng bo'ladi:

$$V = \frac{V_n}{V_{bt}} \cdot 100 = \frac{589}{3750} \cdot 100 = 15,7\%$$

Blokda tayyorlov ishlarining koeffitsienti esa quyidagiga teng bo'ladi:

$$K_l = \frac{L_n}{Q} \cdot 1000 = \frac{148}{9863} \cdot 1000 = 15 \text{ m} / t,$$

$$K_v = \frac{V_n}{Q} \cdot 1000 = \frac{589}{9863} \cdot 1000 = 59,7 \text{ m}^3 / t.$$

Blokda tayyorlov ishlarini davomida qazib olingan ruda ulushi, barcha o'tilgan tayyorlov ishlarining ruda tanasidan o'tilmaganligi uchun $\delta_n = 0$ ga teng bo'ladi.

Tayyorlov lahimlarini o'tishga ketgan harajatlar esa, taklif qilinayotgan tayyorlov usulidagi blokni tayyorlov lahimlarining umumiy hajmini 589 m³ liginu hisobga olsak, bu harajatlar 1215,236 mln so'mni tashkil qiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ikkita tayyorlov usulini solishtiradigan bo'lsak, blokni qazib olishga tayyorlov usulining birinchi usulida ruda tushirgichning yuzasi loyihada ko'rsatilganidan kengayib ketishi natijasida kon ishlarini olib borish havfsizlik nuqtai nazaridan qiyinlashgan. Buning asosiy sababi, burg'ulab portlatish ishlarida ruda tushirgichdan uncha katta bo'lmagan masofada amalga oshirilganidir.

Birinchi tayyorlov usulida faqatgina birinchi loyihada blokdan ikkinchi zahira chiqish yo'lini mavjudligi, qolgan uchta loyihada blokdan ikkinchi zahira chiqish yo'li bilan ta'minlay olmaslik ham bu tayyorlov usulining eng asosiy kamchiligidir.

Taklif qilinayotgan tayyorlov usuli bundan mustasno. Bu holat esa kon ishlarini olib borishning yagona havfsizlik qoidalariga ham zid hisoblanadi [12].

1- va 2-jadvallardan blokni qazib olishga tayyorlov usulining birinchi usulida kon ishlarini olib borishning qiyinlashishi oqibatida tayyorlovchi lahimlarning hajmini ikkinchi usulga nisbatan oshib ketganini ko'rish mumkin.

Tayyorlovchi lahimlarning hajmini ortishi ortiqcha sarf-harajatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Birinchi tayyorlov usulida lahimlarni o'tishga ketgan harajatlarni lahimlarni rudadan o'tib bir qismini qaytarishning imkonini bo'lgan bo'lsada, saqlovchi seliklarda qolgan yo'qotilishlarni, seliklarni baravariga portlatish orqali qo'porib olingan rudaning sifatsizlanishini, mustahkamligichlarga ketgan sarf-harajatlarni va eng asosiysi kon ishlarini olib borishning yagona havfsizlik qoidalariga ayrim holatlarda amal qilmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Ikkinchi usulda esa, blok qazib olishga tayyorlanganida faqatgina tayyorlov lahimlarining atrof tog' jinslaridan o'tilganligi hisobiga, ketgan sarf-harajatlari qaytarib olinmasligi uning asosiy kamchiligidir.

Ko'rib chiqilganlardan shuni xulosa qilish mumkin-ki, ikkinchi taklif qilinayotgan tayyorlov usulida tayyorlov ishlarining solishtirma hajmi birinchi usulga nisbatan 47,8% ga, tayyorlov ishlarining koeffitsienti 47,6% ga kamni tashkil etmoqda, bundan ko'rinib turibdiki blokda tayyorlov ming tonna mahsulotga ishlov berish hajmi ikkinchi usulda hozirgi kunda qo'llanilayotgan usulga nisbatan ikki barobar kamroqni tashkil qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, "Kochbuloq" konining +880 m gorizontalidagi 14-ruda tanasidagi qolgan bloklarni qazib olishga tayyorlov ishlarini yuqorida ko'rib chiqilgan ikkinchi tayyorlov usuliga tayangan holda, ya'ni ruda tanasini, tayyorlov kon lahimlarini atrof tog' jinslaridan o'tib tayyorlov usuli bilan qazib olishga tayyorlov maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bibliografik ro'yxat:

1. Mixaylov Yu.V., Vasilev A.E., Gorniy S.V. Ruda tanasini foydali qazilmalarni kombinatsiyalashgan usulda qazib olishga tayyorlov // Nedelya gorniyaka – 2003, 10-seminar. – Moskva, 2003. 114-116 betlar.
2. Milixin G.G. Ruda konlarini ochish va tayyorlov. – Murmansk: MGTU, 2004. – 113 bet.
3. Xomenko O.E., Kononenko M.N. Yer osti konlarida ruda konlarini ochish va tayyorlov. – Dnepropetrovsk: NGU, 2016. – 101 bet.
4. Borisenko S.G. Ruda konlarini yer osti usulida qazib olish texnologiyasi. – Kiev: Vishaya shkola, 1987. – 262 bet.
5. Akbarov T.G., Nishanov A.Sh., Urazov J.D. Kochbuloq konining notekis minerallashgan ruda tanalarini yer osti foydali qazilmalarini oqilona qazib olish texnologiyasi // Universum: texnika fanlari. 12(93)-son, 3-qism. – Moskva: MSNO, 2021. 5-8 betlar.
6. Akbarov T.G., Nishanov A.Sh., Urazov J.D. Angren viloyati oltin konlarini yer osti usulida qazishning ratsional texnologiyalari. Monografiya. – Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2022. – 212 bet.
7. Akbarov T.G., Urazov J.D., Nishanov A.Sh. Angren kon boshqarmasining oltin konlarida qazib olish tizimlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari // Konmetallurgiya sanoatining zamonaviy texnologiyalari va innovatsiyalari: respublika ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari. – Navoi, 2012. 85-86 betlar.
8. Eroxin N.A., Ribalov V.G., Golushkov P.M. Kochbuloq oltin konining shimoliy qismini batafsil o'rganish natijalari to'g'risida hisobot. 1-jild. 2-kitob. Kon geologiyasi, metodologiyasi va ish hajmi. – Toshkent, 1985. 29-32 betlar.
9. Akbarov T.G., Nishanov A.Sh., Urazov J.D., Ashirov Yu.N. Kochbuloq oltin konini yer osti usulida qazib olishning xususiyatlari // International Innovatsion fan va tadqiqot texnologiyalari xalqaro jurnali (IJISRT). – 6 tom, 12-son. – Hindiston, 2021. 904-907 betlar.
10. Agoshkov M.I., Malaxov G.M. Ruda konlarini yer osti usulida qazib olish. – Moskva: Nedra, 1977. – 663 bet.
11. Imenitov V.R. Ruda konlarini yer osti usulida qazib olish texnologiyasi, mexanizatsiyalash va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish. – Moskva: Nedra, 1973. – 463 bet.
12. Ruda, noruda va sochma holdagi konlarni yer osti usuli bilan qazib olishda havfsizlikning yagona qoidalari. – Toshkent, 2019. – 243 bet.

THE IMPROVEMENT OF ORE BODY PREPARATION METHODS AT THE KOCHBULOK MINE

¹**Akbarov T.G.**, Professor of the Department "Geotechnology of coal and reservoir deposits", Candidate of Technical Sciences.

²**Nishanov A.Sh.**, Deputy head of the section. E-mail: nishanov.akmal.86@gmail.com.

²**Urazov J.D.**, Chief Engineer. E-mail: urazov.jahongir@gmail.com.

¹Tashkent State Technical University named after Islam Karimov. Tashkent, Uzbekistan.

²JSC «Almalyk Mining and Metallurgical Combine». Almalyk, Uzbekistan.

This article describes one of the main problems of mining enterprises on the example of improving the method of preparation of the ore body of the deposit Kochbulak Angren ore management, is the need for the right choice of method of preparation in difficult mining conditions at the initial stage of development of mineral resources, which may affect the reduction of quantitative and qualitative losses of ore during mining. The paper also deals with methods of preparation of ore bodies, their main advantages and disadvantages, factors influencing the choice of preparation method, requirements to the method of preparation.

Keywords: ore body, host rock, mineral, mining, preparation method, development, block, ore losses, dilution of ore, rising, bottom drift, development system, project, stockpile.

Bibliographic list:

1. Mikhailov Yu.V., Vasiliev A.E., Gorny S.V. Preparation of an ore body for the extraction of a mineral by a combined method // Miner's Week – 2003, seminar No. 10. – Moscow, 2003.
2. Milekhin G.G. Opening and preparation of ore deposits. – Murmansk: MSTU Publishing House, 2004. – 113 p.
3. Khomenko O.E., Kononenko M.N. Opening and preparation of ore deposits during underground mining. – Dnepropetrovsk: NSU, 2016. – 101 p.
4. Borisenko S.G. Technology of underground mining of ore deposits. – Kiev: Vishchaya shkola, 1987. – 262 p.
5. Akbarov T.G., Nishanov A.Sh., Urazov J.D. Rational technology of underground mining of ore bodies of the Kochbulak deposit with uneven mineralization // Universum: technical sciences: scientific journal. – No.12(93), part 3. – Moscow: Publishing house "MCNO", 2021, pp. 5-8.
6. Akbarov T.G., Nishanov A.Sh., Urazov J.D. Rational technologies of underground mining of gold deposits of the Angren region. Monograph. – Tashkent: Publishing house "Navryz", 2022. – 212 p.
7. Akbarov T.G., Urazov J.D., Nishanov A.Sh. The main directions in improving the development systems at the gold mines of the Angren mine management // "Modern technologies and innovations of the mining and metallurgical industry", materials of the Republican scientific and technical conference (with international participation). – Navoi, 2012, pp. 85-86.
8. Erokhin N.A., Rybalov V.G., Goloshukov P.M., etc. Report on the results of detailed exploration of the northern part of the Kochbulak gold deposit. Volume 1. Book 2. Geology of the deposit, methodology and scope of work. – Tashkent, 1985, pp. 29-32.
9. Akbarov T.G., Nishanov A.Sh., Urazov J.D., Ashirov Yu.N. Features of underground mining of the Kochbulak gold deposit // International Journal of Innovative Sciences and Research Technologies. Volume 6, Issue 12. – India, 2021, pp. 904-907.
10. Agashkov M.I., Malakhov G.M. Underground mining of ore deposits. – Moscow: Nedra, 1977. – 663 p.
11. Imenitov V.R. Technology, mechanization and organization of production processes in underground mining of ore deposits. – Moscow: Nedra, 1973. – 463 p.
12. Uniform Safety Requirements for Underground Development of Ore, Non-Ore, and Placer Mineral Deposits. – Tashkent, 2019. – 243 p.

HT-250-01; HT-250 M

УНИВЕРСАЛЬНЫЙ ТОКАРНЫЙ СТАНОК



NMZ
Вдохни жизнь в металл

АО «НГМК»
Производственное объединение
«Навийский машиностроительный завод»
www.ngmk.uz
Адрес: г. Навои, ул. Инспекторов, 5
Тел.: (+99879) 2276214; 227-64-23
Факс: (+99879) 223-48-78
E-mail: informz@ngmk.uz

ИССЛЕДОВАНИЕ СПОСОБОВ ВЕДЕНИЯ ВЗРЫВНЫХ РАБОТ В ОБВОДНЁННЫХ СКВАЖИНАХ НА ОТКРЫТЫХ ГОРНЫХ РАБОТАХ



Нутфуллоев Г.С.,
начальник
Учебно-методического отдела
Алмалыкского филиала НИТУ «МИСиС»,
к.т.н., доцент



Гаибназаров Б.А.,
старший преподаватель
кафедры «Горное дело»
Алмалыкского филиала ТГТУ им. И. Каримова

Maqolada quduqlarda suvchanligining tabiati va uning intensivligiga ta'sir qiluvchi omillar ko'rib chiqilgan. Karyerlarda suvli tog' jinslarida portlatish ishlarini olib borishda ushbu ishlarning tannarxini pasaytirish maqsadida BPI ni takomillashtirish muammosini hal qilish yo'llari taklif etilgan, ular suvli tog' jinslarida foydalanish uchun yangi, ilg'or va tejamkor portlovchi moddallarni yaratish, mavjud portlovchi moddalar bilan portlatish texnologiyasini takomillashtirish; tanlash va ularni muayyan sharoitlarda ishlatish; eng tejamkor portlovchi moddalar va suvli quduqlarni drenajlash yoki suvga ustuvor portlovchi moddalarni ishlatish imkonini beradigan zaryadlarni suvdan himoya qilish. Maqola mualliflari tomonidan ishlab chiqilgan quduqlardan suv va burg'i shlamlarini olib tashlash uchun maxsus suv osti qurilmasining konstruksiyasi ko'rib chiqilgan.

Tayanch iboralar: tog' jinslarining suvdorligi, portlatish ishlari tannarxi, o'z-o'zidan portlashlar ehtimoli, portlash vaqtida radlar sonining ko'payishi, kareyr suvlari mineralizatsiyasi va kislotaliligi, suvdorlik anizotropiya, eritmalarning gellari, shlamlangan quduqlar, nasos konstruksiyasi, portlatish ishlarini takomillashtirish.

В статье рассмотрены факторы, влияющие на характер и интенсивность обводнённости скважин. Предложены пути решения проблем совершенствования взрывных работ в обводнённых породах на карьерах с целью снижения их себестоимости, заключающиеся в создании новых, более совершенных и экономичных взрывчатых материалов для применения в обводнённых породах, усовершенствовании технологии ведения взрывных работ существующими взрывчатыми материалами, выборе и использовании в конкретных условиях наиболее экономичных ВВ и осушении обводнённых скважин или изоляции зарядов от воды, что позволит использовать неводоустойчивые ВВ. Рассмотрена конструкция специального погружного устройства для удаления воды и шлама из буровых скважин, разработанного авторами статьи.

Ключевые слова: обводнённость пород, стоимость взрывных работ, возможность самопроизвольных взрывов, увеличение числа отказов, минерализация и кислотность карьерных вод, обводнённость, анизотропия, гели растворов, ошламованной скважины, конструкции насосов, совершенствование взрывных работ.

Обводнённость пород вызывает значительные затруднения при их взрывании на карьерах и приводит к существенному повышению стоимости взрывных работ из-за использования дорогостоящих водоустойчивых ВВ, усложнения техники заряжания, увеличения количества отказов зарядов.

Помимо этих, общих для всех карьеров, затруднений на многих горных предприятиях сталкиваются и со специфическими трудностями, также вызванными обводнённостью пород. Присутствие агрессивной (кислой или щелочной) воды в некоторых разновидностях руд создает возможность самопроизвольных взрывов ВВ.

По отчетным данным горных предприятий, средняя стоимость взрывания обводнённых пород на карьерах почти в два раза выше, чем аналогичных по свойствам сухих пород. Наибольшие резервы снижения стоимости взрывных работ на карьерах имеются именно при взрывании обводнённых пород. Однако реализация этих резервов требует значительных усилий.

Трудоёмкость заряжания обводнённых скважин на 40-50% выше, чем сухих. При большой загруженности взрывного персонала карьеров повышение трудоёмкости работ мешает ритмичности проведения взрывов и сокращению их количества.

Увеличение числа отказов зарядов из-за обводнённости скважин вызывается несколькими причинами. К ним относятся недостаточная водоустойчивость взрывчатых материалов (в частности, детонирующего шнура), образование шламовых перемычек при

перерывах в заряжании скважин, вымывание и растворение аммиачной селитры из зарядов ВВ.

Следовательно, увеличение эффективности и снижение стоимости взрывных работ в обводнённых породах на карьерах представляет собой важную и сложную проблему. В последнее время ею занимаются многие крупные горные предприятия и исследовательские организации.

Характер и интенсивность обводнённости скважин на карьерах весьма разнообразны. На них влияет целый ряд факторов: природная обводнённость месторождения, свойства слагающих его пород (трещиноватость, состав), существующая система дренажных сооружений, глубина обрабатываемого участка месторождения, климатические особенности района и др.

В большинстве случаев карьерные воды напорные, однако, притоки воды во взрывные скважины и степень проточности могут значительно варьировать. Далекое не всегда проточность воды в скважинах оказывается значительной. Нижние горизонты карьеров обводнены обычно сильнее, чем верхние, что связано не только с увеличением водоносности нижележащих горизонтов, но и с притоком воды с вышележащих горизонтов.

Различна минерализация и кислотность карьерных вод. Показатель кислотности на месторождениях цветных металлов меняется от 1 до 8-9, т.е. агрессивные воды могут быть как кислыми, так и щелочными.

Уровень воды в обводненных скважинах и их доля в общем количестве взрывааемых скважин на разных карьерах и на разных участках одного карьера также различаются.

Увеличение трещиноватости пород сопровождается ростом коэффициента фильтрации и более активной миграцией воды. Поэтому скважины, пробуренные поблизости от бортов уступов в более трещиноватых при прочих равных условиях породах, менее обводнены, чем пробуренные в слаботрещиноватых породах. Это наблюдается при многоярдом расположении скважин: наименее обводнены скважины первого ряда, располагающиеся в зоне дополнительной трещиноватости, вызванной предыдущими взрывами, с удалением же от откоса уступа обводненность скважин увеличивается.

В настоящее время изучению гидрогеологических особенностей карьеров с позиции повышения эффективности ведения взрывных работ уделяется недостаточное внимание.

Обычно разные участки карьерного поля обводнены неодинаково – обводненность анизотропна как в плане, так и в разрезе месторождения. Поэтому для увеличения эффективности взрывных работ и правильного планирования расхода различных ВВ следует проводить районирование карьеров по вероятной обводненности взрывных скважин подобно тому, как это делается на некоторых карьерах в отношении дробимости пород взрывом.

Значительные притоки воды оказывают весьма неблагоприятное влияние на технологию заряжания скважин на карьерах. С углублением действующих карьеров и вовлечением в разработку новых месторождений полезных ископаемых со сложными гидрогеологическими условиями степень их влияния возрастает.

Заряжание обводненных скважин осуществляется преимущественно вручную гранулоломом, алюмотолом и другими дорогостоящими ВВ. Для этих условий необходим более широкий ассортимент водостойчивых дешевых ВВ. Только отсутствием таких ВВ может быть объяснено применение гранулолола в обводненных породах незначительной и средней крепости.

В последнее время все шире производят осушение скважин перед заряжением с помощью специальных установок и последующее заряжение их аммиачно-селитренными ВВ. Заряжание ведется высокопроизводительным механизированным способом, причем ВВ засыпаются непосредственно в скважину, если приток воды незначительный, или в рукава из полиэтиленовой пленки. Широкое распространение этот способ получил в США и Канаде, что позволило довести долю смесей типа АС+ДТ в общем объеме потребления ВВ до 78 % [1].

При изготовлении водостойчивых ВВ в заводских условиях с последующей упаковкой в полиэтиленовые оболочки рецептуру составляют таким образом, чтобы скорость гелеобразования была небольшой. ВВ, изготавливаемые в смесительно-зарядных машинах, должны быть текучими и в то же время водостойчивыми. Эти противоречивые требования выполняются регулированием скорости гелеобразования; пока смесь транспортируется по шлангам, консистенция ее должна быть довольно жидкая, гель должен образовываться при выходе смеси из зарядного трубопровода.

Известно также, что относительно прочные гели растворов КМЦ образуются в присутствии ионов железа (Fe^{+++}), меди (Cu^{++}) и алюминия (Al^{+++}), но их влияние на вязкость, параметры транспортирования и водостойчивость ВВ не установлено.

Таким образом, приготовление, структура и свойства гелей заслуживают пристального внимания и всестороннего исследования, тем более что в литературе часто процесс гелеобразования представляется в упрощенном виде. Отсутствие подобных исследований является тормозом для широкого внедрения водосодержащих ВВ.

В практическом плане проблема механизированного заряжания водосодержащими ВВ решается на Соколовско-Сарбайском комби-

нате с помощью ифзанитного комплекса, состоящего из нагревательно-смесительной установки НСУ для приготовления насыщенного раствора АС и транспортно-зарядной машины ТЗМ. С этой целью транспортно-зарядная машина в ходе экспериментальных исследований подвергалась неоднократным конструктивным изменениям, в результате чего она стала выдавать водосодержащую смесь ВВ с соотношением твердой и жидкой фаз 60:40.

Как показал анализ, ифзанит с таким соотношением твердой и жидкой фаз не расслаивается без загустителя, заряд оказывается сплошным, прочным и однородным по всей длине колонки.

Оказалось возможным вводить такой состав ифзанита по шлангу под столб воды, т.е. осуществить заряжение обводненных скважин. Это дало возможность без специального загустителя заряжать обводненные скважины с высотой столба воды до 6 м. Увеличение столба воды более 6 м пока сдерживается технологическими возможностями машины ТЗМ с пневматическим транспортированием водосодержащих смесей.

Исследовательские работы по заряжению ифзанитом полностью обводненных скважин продолжаются.

Качество дробления горной массы при взрывании ифзанитом, как показали данные химического анализа пробы его состава, прямо зависят от качества омасливания дизтопливом аммиачной селитры в машинах типа СУЗН, от ухода за ними. Результаты опытно-промышленных взрывов показали, что применение ифзанитов, имеющих большую объемную концентрацию энергии, позволяет значительно улучшить качество дробления горной массы при сохранении сетки скважин или расширить последнюю с образованием более компактного развала и хорошей проработки подошвы уступа с получением в обоих случаях соответствующего экономического эффекта.

Производство взрывных работ в обводненных условиях сопровождается не только увеличением их стоимости из-за применения дорогостоящих водостойчивых сортов ВВ (тротил, алюмотол), но и резким ухудшением качества взрывов вследствие довольно частых отказов зарядов, особенно при шарошечном бурении скважин [2].

Исследования показали, что отказы зарядов в обводненных скважинах шарошечного бурения связаны с интенсивным ошламованием стенок скважин и составляют в отдельных взрывах до 10-15 %.

При заряжении обводненной ошламованной скважины создаются условия, при которых колонка заряда искусственно разделяется на несколько частей буровым шламом, который препятствует передаче детонации между отдельными частями заряда. Особенно опасны длительные перерывы в заряжении одной скважины, так как образуется особенно толстая пробка. При этом наблюдались случаи частичной детонации скважинного заряда. Если взрывали нижнюю часть скважинного заряда, то наблюдался выброс тротила из верхней части заряда на поверхность блока. При взрыве верхней части заряда, т.е. части заряда, расположенной внизу скважины, оставалась не взорванной нижняя часть скважины и сверху нее находили спрессованный слой шлама толщиной до 400 мм. Наблюдались случаи, когда шлам флегматизировал заряд и детонация переходила в горение. При мокром пылеподавлении станков шарошечного бурения значительно снизилась возможность образования шламовых пробок, а, следовательно, и отказов [3].

Исследования [4] показали, что в гидрогеологических условиях примерно 97% осушенных скважин не заполняются вновь грунтовой водой в течение 10 мин и более. Этого времени вполне достаточно для заряжания ручным или механизированным способом скважины сухим рассыпным или водонаполненным ВВ, которые обычно плохо погружаются в воду.

Исследования показали, что при малой подвижности грунтовых вод (коэффициент фильтрации для железистых кварцитов $K_{cp} = 0,024 м/сут$) заряд ВВ, помещенный в осушенную скважину, находится




Рис. 1. Погружное устройство для удаления воды и шлама из буровых скважин: 1 – улавливающая корзинка; 2 – водоотливная труба; 3 – корпус погружного устройства; 4 – клапанная коробка; 5 – водоотливной гибкий шланг; 6 – воздушный шланг; 7 – пульт управления; 8 – храпок

как бы в замкнутом сосуде. При этом вынос раствора аммиачной селитры незначителен, а уменьшение высоты колонки ВВ на 15-20 % происходит в основном за счет уплотнения и частичного растворения заряда при наполнении скважины водой.

Для механизированного осушения скважин были изучены различные конструкции насосов [5], а некоторые из них были опробованы в производственных условиях. Было установлено, что ни одна из рассмотренных конструкций не удовлетворяет предъявленным к ним требованиям. Авторами статьи был разработан и изготовлен в мастерских рудника специальный погружной насос, получивший в дальнейшем название погружного устройства (ПУ) (рис. 1).

Чрезвычайно простая конструкция ПУ обеспечивает его надежность и долговечность. Исследования показали, что производительность погружного устройства зависит от ряда конструктивных параметров (диаметра и длины ПУ, конструкции клапана, диаметра шлангов и проходных отверстий и т.д.) и практически не зависит от высоты столба воды в скважине (в пределах глубины 12-17 м).

Библиографический список:

1. Закалинский В.М., Медведев Г.Н., Павлютенков В.М., Фролов А.П., Шинин В.П. Опыт механизированного заряжания обводнённых скважин // В сб. Взрывное дело: совершенствование буровзрывных работ в горном деле. – №77/34. – М.: Недра, 1976. – С. 226-230.
2. Давыдов Б.С., Музаритис А.С., Колесниченко И.Т. Новая технология заряжания обводнённых скважин на карьерах / В сб. Взрывное дело: развитие теории и практики взрывного дела. – №71/28. – М.: Недра, 1972. – С. 184-190.
3. Семенко П.И. и др. Пылеулавливание при шарошечном бурении // Горный журнал, 1968. – № 4. – Москва: АО «Издательский дом «Руда и Металлы». – С. 34-36.
4. Давыдов Б.С. и др. Применение зерногранулиита 80/20 в обводнённых условиях // Горный журнал, 1969. – № 9. – Москва: АО «Издательский дом «Руда и Металлы». – С. 66-69.
5. Пак В.С., Гейер В.Г. Рудничные вентиляционные и водоотливные установки. – М.: Углетехиздат, 1955. – 427 с.

Dunyo suv resurslari instituti taxminlariga ko'ra 2040 yillarga kelib, jaxsonning o'ttizdan ortiq davlatida suvning o'ta darajada tanqisligi vujudga keladi, bu davlatlar orasida Markaziy Osiyo mamlakatlarining barchasi mavjud. Shuning uchun suv resurslaridan foydalanish va barqaror amaliyotini ishlab chiqish mamlakatlarni kelajakdagi iqtisodiy, ijtimoiy rivojlantirish uchun juda muximdir. O'zbekiston hududidagi barcha suv manbalari davlat mulki hisoblanadi u umummilliy boylikdir. Mamlakatimizdagi barcha suv resurslari davlat tomonidan himoyalangani. Mavjud tabiiy suv manbalaridan to'g'ri oqilona foydalanish maqsadida xukumatimizning maxsus qaror va farmonlari qabul qilingan. Prezidentimizning 2020 yil yanvar oyida Oliy Majlisga yo'llangan murojaatnomasida suv xujaligi ob'ektlarini boshqarish, suvni nazorat qilish va uning hisobini yuritish tizimini avtomatlashtirish hamda ushbu soha xizmatini takomillashtirish zarurligiga e'tibor qaratdi. Bu masala suv xujaligini rivojlantirish kontseptsiyasida o'z aksini topishi kerakligini ta'kidlandi (1).

Suv tiriklik nishonasidir. Qadimgi sharq xalqlari bekorga «Suv – hayot manbai» deb e'tirof etmaganlar. Ayniqsa suv tanqis bo'lgan yer kurrasining sahro va cho'l hududlarida, suv insonga in'om etilgan tabiat nematidir. Suv bor joyda hayot bo'ladi tiriklik bor joyda ishlab chiqarish tashkil etilib moddiy ne'mat yaratiladi va ertangi kunga ishonch paydo bo'ladi. To'kin-sochinlik va tinchlik bor joyda hayot o'z mi'yorida davom etadi. Aslida hur fikrli insonlar uchun hayot mazmunini osoyishtalik va xotirjamlik tashkil etadi.

Planetamizda suv ko'p bo'lgani bilan ularni barchasini ishlatib bo'lmaydi ya'ni istemolga yaroqsiz. Tabiatda suvning aylanish jarayonlaridan biri er sathidagi mavjud bo'lgan chuchuk suv bo'lib, u erdagi barcha hayot turlari uchun o'ta muximdir. Hozirda istemol qilinadigan suvning 90 % yaqini asosan qishloq xo'jaligida ishlatiladi. Ishlatiladigan ichimlik suvimiz esa doimiy muzliklardan, yomg'ir qor va

buloq suvlari bilan to'yinadigan traschegaraviy daryolar orqali etib keladi. Bizda suvga bo'lgan munosabat tarbiyaning bir qismi hisoblanib juda qadimdan shakllanib bo'lgan. Ota-bobolarimiz o'qar suvni iflos qilmaslik, suvga tupurmaslik va suvdan to'g'ri oqilona foydalanish to'g'risidagi pandu-nasihatlarni bilan avlodlarni uzliksiz tarbiyalab kelishgan. Yozma manbalarda esa qadimgi sharq donishmandlari ichimlik suvi haqida juda ko'p hikmatli so'zlarni keltirib o'tishgan. Buyuk sharq mutafakiri tibbiyot ilmining otasi Ibn-Sino suvning shifobaxshligi to'g'risida to'xtab «Toza zilol buloq suvi o'zida oltin zarrachalarini saqlab, osmon va hayotning bir qismini tashkil etadi, uni ichgan odam kuchli va dono bo'ladi» deb izohlagan. Jaloliddin Rumi hazratlari esa o'z asarida yomg'ir suvi haqida fikrlab «Kuzgi yomg'ir suvidan ehtiyot bo'l u seni erta xazon barg singari kuchsiz qiladi, baxor yomg'iri esa o'yg'onayotgan tabiat singari navqiron qiladi» deyilgan jummalarni keltirgan. Baxorgi yomg'ir suvini olib qo'yish odati qadimgi turk xalqlarida saqlanib qolgan uning muqaddasligi va turli kasalliklarga shifo bo'lishi aytilgan. Hatoki bu odat yaqinlarga Turkiyada saqlanib kelgan 15 apreldan 15 may oralig'ida yoqqan yomg'ir suvidan oltin yoki kumush idishlarga olib qo'yilgan «aprel kosasi» suvi nomi bilan ulug'lanib hattoki «zam-zam» suviga tenglashtirilgan. Ko'p miqdorda ichimlik suvini yaxshi saqlash maqsadida qadimda turli inshootlar qurilgan. Jumladan ichimlik suvi kam bo'lgan cho'l va dasht hududlarda barpo etilgan maxsus gidrotexnik inshootlar sardobalar mavjud bo'lgan. Sardoba forscha so'zdan olingan bo'lib «Sard» – yaxshi, mutadil, salqin, «ob» -esa suv manosini anglatgan. Sardoba salqin toza ichimlik suvi saqlash uchun mo'ljallangan gidrotexnik inshoot bo'lib, muxandislik ilmi asosida mohirlik bilan yaratilgan o'ziga xos jozibador me'moriy echimga ega bo'lgan hovuz qurilmasi. Bu tipdagi inshootlar Markaziy Osiyo, Eron, Turkiya va arab mamlakatlarida qadimdan foydalanib kelingan (2).

Kuzatuvga olingan suv namunalarning kimyoviy tahlili

T/r	Suv namunasi	Qattiq qoldiq, mg	Kationlar, mg/l			Anionlar, mg/l				Umum qattiqlik mg-ekv/l	pH
			NH ₄ ⁺	Ca ⁺² Mg ⁺²	Na ⁺ , K ⁺	CO ₃ ⁻²	SO ₄ ⁻²	Cl ⁻	NO ₃ ⁻		
1.	yomg'ir	170	0,25	20,0	11,4	6,0	20,6	30,0	-	1,2	7,8
2.	qor	40	-	5,4	1,5	-	18,4	-	-	0,4	7,6

Sardobada saqlangan suv ichimi yaxshi, odam va tirik organizm uchun fiziologik ahamiyati katta bo'lgan. Sardobalar asosan suvsiz kengliklarda barpo etilib o'zoqdan ko'zga tashlanib turanligi uchun o'tayotgan karvonlar mo'ljalni to'g'ri aniqlagan va u erda tuxtab dam olishgan hamda karvonga kerakli suv jamg'arishgan. Ularni barpo etishda aholi punktlaridan ma'lum bir o'zoqlikda bo'lishini hisobga olib o'rtacha bir karvon yo'li oraliqda bunyod etilgan. Tarixiy manbalarga qaraganda ulkamizda 44ta katta-kichik sardobalar mavjud bo'lgan. Jumladan eng ko'pi Buxoro, Qarshi dashtlarida 28ta, Toshkent, Quqon atroflarida 4ta, Mirzaxulda 5ta va Ustyurt kengliklarida esa 7ta sardoba qoldiqlari aniqlangan, hozirda ularning bir qismi tarixiy manba sifatida saqlanib qolgan xolos. Bulardan biri Karmana yaqinidagi Malik rabot karvon saroyida barpo etilgan sardobadir. Sardoba hovuzi devorining qalinligi bir yarim metri, chuqurligi 13 m diametri esa 12 m tashkil etgan. Barpo etilgan sardoba hovuzining ust qismi sharqona an'anaviy gumbaz shaklida bo'lib, uning tepasida suvni bug'lanishi hisobida suvni salqin saqlash hamda yorug'likni ta'minlash maqsadida o'ziga xos me'moriy echimga ega bo'lgan maxsus tuynuklar bo'lgan. Ushbu tipdagi gidrotexnik inshootlarini qurishda yomg'ir va qor suvlarini yig'ish imkoniyati bor joy tanlangan. Yog'ingarchilik kam bo'lgan yillarda Zarafshon daryosidan suv keltiriladigan qadimgi quvur ham mavjud bo'lgan. Sardoba hovuzi devori mustahkamligini ta'minlash maqsadida suvga chidamli va suvning sifat ko'rsatkichlarini yaxshi saqlaydigan materiallardan foydalanilgan. Buning uchun maxsus tanlangan joydan olingan qum elanib bir yil davomida alohida joyda saqlangan va undan g'isht o'ziga xos texnologiya asosida tayyorlangan, tayyorlanish texnologiyasi esa maxfiy saqlangan. G'isht tayyorlashda quritib elangan soz tuproqqa suv bilan oz miqdorda sut va tuya yungi aralashtirib loy tayyorlangan. Tayyorlangan loy ma'lum muddat saqlanib tindirilgan so'ngra yana qo'shimcha ishlov berilib 11x11x2,2 dyum (279,4*279,4*55,88 mm) o'lchamli g'ishtlar qo'yilgan. Tayyorlangan g'ishtlar yil davomida quyoshda qizdirilib quritiladi so'ngra uning sifati va chertganda chiqaradigan ovoziga qarab tanlab ajratib olinib saralangan so'ngra maxsus xumda asta sekin qizdirilib pishirilgan. Sardoba qurilishida uning katta kichikligiga qarab 400-600 mingga maxsus tayyorlangan g'ishtlar ishlatilgan. Saqlanadigan suvning ichimlilik mazasi, sifati yaxshi bo'lishi uchun suv saqlanadigan hovuzning o'ziga xos texnologiya asosida barpo etish muhim hisoblangan. Buning uchun dastlab hovuz tayyorlanib osti soz g'isht va ganch bilan tekislanib, uning ustiga saksovulni chala yoqib tayyorlangan pista kumir bir qavat tashlanib kumir ustidan esa tuya yungi tushalib tekislanib mol terisi bilan qoplangan va yana uning ustidan maxsus ganch-gil qorishmal g'ishtlar bilan tekislanib yopilgan [3]. Sardoba hovuzlaridan suv olishda ham o'ziga xos tartib o'rnatilgan bo'lib, suvning yuzasi ko'p to'lqinlantirilmay olish tavsiya etilgan. Sardoba suvining sifati va miqdori doimo nazorat qilib borilgan hamda yilida bir marta tozalangan [4]. Suvni yaxshi saqlash uchun ba'zi sardobalar hovuzida suv ancha chuqurda saqlanib shamolatish uchun maxsus moslama "bad-gir" bilan jihozlangan ya'ni bug'langan suvni yuqoriga chiqarib yuboradigan muri ko'rinishidagi qurilmalar mavjud bo'lgan. Bunday tipdagi sardobalar asosan Eronda barpo etilgan bo'lib, jumladan Kazvindagi "Sardori Bozorg" sardoba hovuzidan suv olish uchun hattoki ellik zina pastga tushish kerak bo'lgan.

Ma'lumotlar taxlil qilib o'rganilganda Markaziy Qizilqumda ichimlik suviga ehtiyoj kuchli bo'lsa ham qadimda sardobalar barpo etilmaganligiga guvoh bo'lamiz. Bu holatni Markaziy Qizilqum o'ziga xos

geografik o'rniga ega bo'lib tabiiy yog'ingarchilik kam, sahro esa qumliklardan iborat bo'lgani uchun mukammal gidrotexnik inshootni qurish imkoniyati bo'lmaganligi bilan izohlashimiz mumkin.

XX asrning ikkinchi yarmigacha inson izmiga bo'ysunmagan asriy Qizilqumda katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib yirik sanoat majmualari barpo etilishi barobarida sahro bag'rida zamonaviy shaxarlar qad ko'tardi. Bu ulkan ishlab chiqarish korxonalar va yangi barpo etilgan shaharlarda yashayotgan insonlarni suvga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun ancha olisdan dunyoda tengi yo'q bo'lgan inshoot orqali suv olib kelinib sanoat korxonalarini hamda hudud flora va faunasini suv bilan ta'minlanib kelindi [5].

Jumladan keyingi yillarda jadal rivojlanayotgan Qizilqum sanoat hududiga yirik investitsiyalarni jalb etish evaziga rejalashtirilgan investitsion loyihalarni amalga oshirishda, yangi gidrometallurgiya zavodlari, kimyo va engil sanoat korxonalarining ishga tushishi munosabati bilan hamda shaxarlarda yashaydigan aholi sonining kupayishi hisobidan ushbu hududning suvga bo'lgan ehtiyoj keskin oshdi. Suvga bo'lgan talabni bir qismini qoplash uchun asrlar davomida ota-bobolarimiz foydalangan usullardan ya'ni suv taqchil bo'lgan ulkalarda yog'ingarchilik natijasida hosil bo'ladigan tabiiy suv resurslarini yig'ib undan unumli foydalanishni davrning o'zi taqozo qilmoqda. Tabiiy suv resurslarini turli usullarda yig'ib sanitar-epidimologik me'yoriy ega bo'lgan yangi mukammal gidrotexnik inshootlarini barpo etish maqsadga muvofiqdir. Yig'ilgan ekologik toza texnik suvdan foydalanish ancha samaralidir.

Qizilqum hududida qor yomg'ir suvlarini yig'ib olishni eng oddiy va tejamkor usuli shahar va ishlab chiqarish korxonalar joylashgan hududda mavjud bo'lgan qattiq qoplamali yoki asfaltlangan joylar hisobidan yoki mavsumiy soy suvlarini damba yordamida yig'ish hisobidan amalga oshirish mumkin. Buning uchun asfaltlangan yoki qattiq qoplama bilan qoplangan joylardan yog'ingarchilik paytida hosil bo'layotgan suvni bir tomonga yo'naltirib ma'lum joylarga yig'ish mumkin. Zarafshon shahri misolida tahlil etsak samarasi yanada yaqqolroq namoyan bo'ladi. Yog'ingarchilik asosan qish va bahor oylarida bo'lishini hisobga olgan holda suvni bir yoki bir necha joyda yig'ish mumkin. Shaxar kuchalari joylashishi va er tuzilishiga e'tibor bersak bir tomonga qarab tekis qiyalikdan iboratligini, shaxarni yuqori qismi bilan pastki qismi orasidagi balandlik farq ellik metr dan ko'proqni tashkil etishi bu yumushni muammosiz hal etilishini bildiradi. Shaharning umumiy hududidan yillik yog'in miqdori asosida yig'ilishi mumkin bo'lgan suvning o'rtacha miqdori hisoblanganda 500 000 m³ ni tashkil etadi albatta bu miqdordagi suvni yig'ish imkoniyati yo'q, ammo astoydil harakat qilinsa 10% suvni yig'ish imkoniyati yaratiladi bu esa 50 000 m³ suvni tashkil etadi. Yog'ingarchilikdan hosil bo'lgan suv tarkibini kimyoviy taxlil qilganda (1-jadval) suvning umumiy qattiqligi qor suvida 0,4 mg-ekv/l ni yomg'ir suvida 1,2 mg-ekv/l ni, mineralashish esa mos ravishda 40 mg/l va 170 mg/l ni tashkil etadi.

Kuzatilgan ob'ektlardan olingan tashlama suvning o'rtacha yillik miqdori

T/r	ob'ektlar	I - yarim yilda, ming m ³ (%)	II - yarim yilda, ming m ³ (%)	Jami ming m ³
1.	№ 1 tashlama quduq	23,2(57)	17,3(43)	40,5
2.	№ 4 tashlama quduq	8,5(67)	4,2(33)	12,7
3.	№ 5 tashlama quduq	45,1 (57)	34,3(43)	79,4

Kuzatilgan ob'ektlardan olingan suv namunalari kimyoviy tahlili

T/r	Quduq raqami	Qattiq qoldiq, mg	Kationlar, mg/l			Anionlar, mg/l					Umum qattiqlik, mg-ekv/l	pH
			Ca ⁺²	Mg ⁺²	Na ⁺ , K ⁺	CO ₃ ⁻²	HCO ₃ ⁻	SO ₄ ⁻²	Cl ⁻	NO ₃ ⁻		
1.	1	3260	545	143	308	4	177	1934	326	2,6	39,0	8,7
2.	2	1680	140	170	119	24	110	658	351	6,0	31,0	8,6
3.	3	3100	184	190	498	12	372	1255	487	7,9	24,8	8,1
4.	18	2260	192	107	414	12	323	967	365	16,0	18,4	8,3
5.	28	1340	160	122	121	0,0	159	576	306	3,7	18,0	7,8
6.	38	1540	184	58	265	12	207	597	319	20,1	14,0	8,2
7.	82	1320	120	85	274	24	415	391	324	4,1	13,0	8,4
8.	110	1620	201	195	66	00	177	165	801	6,6	26,0	8,1



1-rasm. O'rganilayotgan ob'ektlarda o'lchov ishlari amalga oshirilmoqda

Ishlatish uchun yig'ilgan suv miqdorini ko'paytirish maqsadida shahar hududidagi er osti suvi taxliliy o'rganilganda uning sathi joyiga qarab 5 metrdan boshlab ba'zi joylar 100 metrgacha etishi aniqlangan va kuzatilgan tashlama quduqlarning quvvati esa yilida o'rtacha 10-80 ming m³ suvni tashkil etadi (2-jadval). Kuzatilgan tashlama quduqlarda suvning miqdori yilning birinchi yarim yilida 60 foizni tashkil etishiga sabab bahor mavsumida nisbatan yog'ingarchilikni ko'p bo'lishi bilan izohlashimiz mumkin.

Yer osti suvlari tarkibi kimyoviy taxlil qilinganda minerallar miqdori ko'p bo'lib istemolga yaroqsizligi aniqlandi. Ushbu suv tarkibini asosan ishqoriy va ishqoriy yer metallarining sulfat-xloridli tuzlari tashkil etadi (miqdori 1,4-6,9 g/l), suvning umumiy qattiqligi esa quduqlar joylashishiga qarab 11-49 mg-ekv/l gacha bo'lishi ko'rsatilgan (3-jadval).

Shahar yer osti suvlari ifloslovchi komponentlardan temir ionlari tekshirilganda 0,35-3 mg/l (REChK = 0,3 mg/l), ammoniy ionlari 2,94-10

mg/l (REChK= 2 mg/l) va nitrat ionlari esa 48-78 mg/l (REChK = 45 mg/l) tashkil etishi aniqlandi (6).

Keltirilgan taxlil natijalari xulosa qilinganda hududda mavjud bo'lgan er osti suvi inson uchun istemolga yaroqsiz bo'lgani bilan texnik suv sifatida sug'orish ishlarida foydalanish, ayniqsa uning tarkibida azot saqlagan komponentlar miqdori nisbatan ko'p bo'lishi yanada istiqbolli ekani ko'rinadi. Foydalanish uchun muljallangan er osti suvlari ma'lum bir miqdorini kimyoviy ko'rsatgichlarini yaxshilash maqsadida yog'ingarchilik paytida yig'ilgan suvga qo'shish mumkin. Tabiiy qor va yomg'ir suvlari yig'ishga muljallangan gidrotexnik inshootga, er osti suvlaridan olinib teng miqdorda aralashtirilsa foydalanish uchun jami 100 000 m³ suv zahirasi hosil qilinadi bu esa yanada ko'proq maydonlarni sug'orish imkoniyati paydo bo'ladi. Suv taqchil bo'lgan xududlarda tabiiy suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun targ'ib etilayotgan "Aqlli suv tizimi" tadbiri etilsa, gidrotexnik inshootlar barpo etilib ularni texnik holati va ishlash xafsizligi ta'minlansa hamda ularni sug'orishda suv yo'qotishi kamaytirilib aniq joylarga yo'naltirilsa uning iqtisodiy samaradorligi yanada katta ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarni joylarda to'liq bajarish uchun tabiiy boyliklardan biri bo'lgan tabiiy suv resurslardan ham tejab-tergab foydalanish jamiyatimizning ustuvor siyosati bo'lib qolmog'i kerak. Tabiiy suv resurslaridan foydalanish tizimini joriy etish buyicha ta'sirchan ragbatlantirish mexanizmlarini yaratish va suv tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish maksadga muvofiqdir.

Olib borilgan kuzatishlar natijasida qilingan taxlillar shuni ko'rsatdiki, chul sharoitida tabiiy suv resurslaridan unumli foydalanish va uning iqtisodiy samarasini yanada oshirish maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish mumkin:

1. Shaharda ekilib parvarishlanayotgan maysa va daraxtlarni imkon darajasida obi-hayot bilan ta'minlash hamda ekologik muhitni yaxshilash.
2. Toza yumshoq suvga ehtiyoji bo'lgan kichik korxonalarni va tadbirkorlarni ekologik toza suv bilan ta'minlash.
3. Suv havzasi sifatida qiziquvchan yoshlarni suv sporti bilan mavsumiy shug'ullanish imkoniyatini yaratish.
4. Suv yo'llaridagi turli qurilmalar va avtomobil yo'llariga etkazilayotgan zararni kamaytirish.
5. Toza ekologik suv qumga besamar singib ketishini oldini olish.

Bibliografik ro'yxat:

1. Mirziyoev Sh. «Yangi O'zbekiston Strategiyasi». – Toshkent, 2021 yil. 162-167 betlar.
2. Berezikov E. Tirik suv. – Toshkent: G.Gulyam nashriyoti, 1991 yil. 28-30 betlar.
3. Masson M.E. Sardoba sardobalarini o'rganish muammosi. – Toshkent. O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Fanlar qo'mitasi nashri. 1935 yil. – № 8. 21-22 betlar.
4. Xoliqova R. Abdallaxon ijodi va sardobasi // SANAT, 2003 yil. – № 1. 35-38 betlar.
5. Karimov Z.T. Qizilqumning oltin poytaxti. // Bukhoro mavjlari, – №4, 2017 yil. 16-19 betlar.
6. Markaziy kon boshqarmasi LOOS TsLKUT hisoboti. – Zarafshon, 2016 yil. 6-9 betlar.

URAN KONLARI TARIXIDAN



Raupov X.R.,
«NKMK» AJ jamoatchilik aloqalari bo'yicha
direktor, t.f.n., dotsent

XX asrning 20-50-yillarida O'rta Osiyo hududida geologlar tomonidan olib borilgan geologik qidiruv ishlari natijasida uran konlari topildi. Maqolada uran konlari, uni qayta ishlash bilan bog'liq jarayonlar, ishlab chiqarish korxonalarining tarixi yoritilgan.

Tayanch iboralar: Qizilqum, Uchquduq, geologiya, uran, kombinat, geotexnologik kon.

Месторождения урана были открыты в 30-х и 50-х годах XX века в результате геологоразведочных работ, проведенных геологами на территории Средней Азии. В статье описаны месторождения урана, процессы, связанные с его переработкой, история создания производственных предприятий.

Ключевые слова: Кызылкум, Учкудук, геология, уран, комбинат, геотехнологический рудник.

XX asrning 40-50-yillarida sobiq Ittifoq va AQSH o'rtasida yadro qurolini yaratish bo'yicha raqobat vujudga kelganligi ma'lum. Bu to'g'risida ko'plab ilmiy maqolalar va kitob yozilgan. Olimlar tomonidan atom energiyasi olish uchun keng ko'lamlari tadqiqotlar olib borildi. Rus olimi V.I. Vernadskiy 1922 yilda Kimyo-texnik ilmiy nashriyoti tomonidan chop etilgan "Insholar va nutqlar" kitobida atom energiyasi to'g'risida o'zining qarashlarini bayon etadi.

Sovet hukumati tomonidan O'rta Osiyo hududida tabiiy radioaktiv xomashyoni qidirib topish bo'yicha geologik qidiruv ishlari boshlab yuboriladi. 1922 yilda S.P. Aleksandrov boshchiligidagi Tuyamuyin konida qidiruv ishlari qayta boshlanib, 1923 yilda undan ruda qazib olish ishlari boshlanadi. 1925 yilda geolog olim S.F. Mashkoves tomonidan Taboshar hududidagi qadimgi konlarda olib borilgan qidiruv ishlari natijasida radioaktiv minerallar mavjudligi aniqlanadi. 1926 yilda esa bu hududda yana bir geolog olim B.N. Nasledov tomonidan qidiruv ishlari davom ettiriladi. Natijada 1927 yilda uning partiyasidagi I.P. Novoxatovsiy tomonidan uran koni topiladi. Shuningdek, Shimoliy Farg'onaning Moylisoy daryosi bo'ylarida geolog Y.K. Pisarchik tomonidan olib borilgan qidiruv ishlari natijasida yuqori radioaktiv ma'danlar topiladi [1]. Bu esa bu yerda uran borligiga ishora edi. Keyinchalik bu joyda yirik uran konlar topilib, uni qazib olish ishlari boshlandi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida sobiq Ittifoqning olimlari uran bo'yicha tadqiqot ishlari to'xtovsiz olib borishgan. 1943 yilning boshlarida Tojikistonning Taboshar konida (Taboshar – IX-X asrlarda lloq konlari guruhidagi metall koni. Qurama tizmasi janubiy-g'arbiy yon bag'ridagi Qoramozor tog'ining Tabosharsoy havzasida joylashgan) uranni qazib olish va qayta ishlash ishlari boshlanadi.

Sobiq Ittifoq Davlat mudofaa qo'mitasining 1945 yil 15 maydagi qarori bilan Tojikistondagi Tuyamuyin va Taboshar, Adrasman va Moylisoy hamda Uyg'ursoy va uran konlari negizida NKVD tizimiga kirgan 6-sonli kon-kimyo kombinati tashkil etiladi [2] (keyinchalik Leninobod kon-kimyo kombinati). Kombinat tashkil etilgandan so'ng uning xom-ashyo bazasini yanada kengaytirish maqsadida yangi konlarni ochish ishlariga katta e'tibor qaratildi. Jumladan, 1949 yilda Alatanga va Kattasoy, 1952 yilda Chovli, 1953 yilda Chorkesar, 1954 yilda Moylikatan, 1955-yilda Rizak va 1956 yilda Jekindek konlari ochildi. Mazkur kombinat ko'p yillar davomida Ittifoq atom sanoati uchun uran yetkazib beradi.

Shu bilan bir qatorda uran bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlariga katta e'tibor berila boshlandi. Jumladan, 1943 yilda Ittifoqda uran bilan bog'liq

ilmiy-tadqiqotlarni olib borish maqsadida Davlat mudofaa qo'mitasining "Uran qazib olish va ishlab chiqarish bo'yicha geologik qidiruv ishlarni tashkil etish haqida"gi farmoyishida Ittifoq Fanlar akademiyasiga uning O'zbek filialida uranni aniqlab beradigan radiometrik laboratoriyani tashkil etish bo'yicha topshiriq beriladi [3].

Ma'lumki, XX asrning 30-50 yillarida geologlar tomonidan Qizilqum sahosida ham keng ko'lamlari geologik qidiruv ishlari olib boriladi. 1930-yilda Qizilqumning Aminzatov hududida uran borligi haqidagi dastlabki ma'lumotlarni bu yerda tadqiqot olib borgan geolog Y.M. Golubkova qayd etib o'tadi. 1931-yilda geolog A.Sosedko Tomditov, Bukantov va Altintov hududida uran mavjudligi to'g'risida o'z qarashlarini aytadi. 1938 -yilda T.Myastovskiy Altintov hududida uran borligini topadi. Bu boradagi ishlar keyinchalik boshqa geologlar tomonidan ham davom ettiriladi [4].

O'zbekiston hududida olib borilgan dastlabki geologik qidiruv tadqiqotlari natijasida Uchquduq hududida yirik uran konlari topildi. O'sha paytda sobiq Ittifoqning atom sanoati uchun zarur bo'lgan uranni qazib olish ishlari tezlashtirish maqsadida boshqa respublikalardan bu yerga ko'plab soha mutaxassislari yuborildi. Uchquduqda uran konlarini o'zlashtirish ishlari boshlab yuborildi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati Uchquduq hududida uran rudasini qazib olish va qayta ishlash maqsadida tashkil etilgan edi [5]. 1958-yil 20-fevralda sobiq Ittifoq hukumatining qarori bilan Navoiy kon-metallurgiya kombinati (1967 yil 1 yanvarga qadar korxonalar O'rta mashinasozlik vazirligining 2-sonli kombinati deb nomlangan) tashkil etildi.

1958 yilda Uchquduq uran konlarining bir qismini sanoat usulida o'zlashtirish boshlandi. Vaholanki, uranni qazib olish ishlari bu yerda ancha murakkab bo'lgan. Negaki, bu yerda uranni qazib olish ishlari birinchi bor olib borilayotgan, qolaversa, uning zaxiralari murakkab kon-geologik sharoitlarda joylashgan edi. Bu esa o'z navbatida ilmiy tadqiqot ishlarida va konni o'zlashtirishda yangi texnologik usullar, eng samarali uslublarini qo'llashni talab qilardi. Shu sababli, uranni ochiq va yer osti usulida qazib olish ishlari bir vaqtda olib boriladi.

XX asrning 50-yillarida sobiq Ittifoqning maxsus ilmiy tadqiqot instituti xodimlari olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida Uchquduq urani fizik-kimyoviy xususiyatining o'ziga xosligi, texnik tuzilishi (sxemasi) bilan boshqa uran konlaridan ajralib turishi aniqlanadi. Uchquduqda uran konlarini izlab topish maqsadida tajriba sexi tashkil qilindi. Shu bilan bir qatorda uranni qayta ishlaydigan zavodni ham barpo etish zarur edi. Yangi gidrometallurgiya zavodi qurilishi uchun

qulay joy kerak edi. Mutaxassislarining o'rganishlari natijasida mazkur zavodni qurish uchun temiryo'lga yaqin bo'lgan Karmana (hozirgi Navoiy shahri) hududi tanlandi. Buning uchun bir qancha omillar, ya'ni birinchidan, bu yerda Karmana temiryo'l stansiyasining mavjudligi, ikkinchidan, Zarafshon daryosiga yaqinligi, uchinchidan, yangi issiqlik elektr stansiyasini barpo etish uchun imkoniyat mavjud edi. 1964 yilda 1-gidrometallurgiya zavodining birinchi navbati ishga tushirildi [6].

Konchilar tomonidan rudani qazib olish uchun ochiq va shaxta usullaridan keng foydalanildi. Natijada o'n bitta karyer va yerosti qazish ishlarini olib borish uchun o'n to'rtta shaxta ishga tushirildi. 1962-yilda "Uchquduq" geotexnologik koni tashkil etildi.

Uranga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi sababli "Uchquduq" geotexnologik konidagi sayoz va og'ir kon-geologik sharoitlarida joylashgan uran rudasini qazib chiqarishda an'anaviy ochiq va yerosti usulidan ko'ra uranni yerostida eritma hosil qilish yo'li bilan olish samarali edi. Buning uchun shu kabi konlarni ishga tushirishning yangi texnologik usulini yaratish bo'yicha tajriba-sinov ishlari olib borildi. Mazkur yangi texnologik usulda – uran yerosti quduqlarida eritib saralanadi. Ya'ni bu usul bilan qattiq material tarkibidagi elementlar eritmalar yordamida ajratib olina boshlandi. Uran qazib chiqarishning mazkur ilg'or usuli kombinat mutaxassislarining sa'y-harakatlari bilan amaliyotga joriy etildi. 1969-yildan boshlab mazkur texnologiya keng tatbiq etilishi natijasida oldinlari ochiq kon usulida ishlash uchun yaroqsiz hisoblangan "Aytim" konida yangi uchastkalar ishga tushirildi [7].

Yangi tashkil etilgan kombinatni malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida "Taboshar" (Tojikiston) va "Moylisoy" (Qirg'iziston) uran konlaridan sohaning tajribali mutaxassislari jalb etildi.

Qizilqumda uran konlari topilishi, o'z navbatida, bu yerda aholi yashash joylari ham barpo etilishiga olib keldi. Uchquduq shahrining tarixi bu yerda uran konining ochilishi bilan bog'liq. Uchquduq shahrining qurilishi 1956-yil bahorida boshlanib, dastlabki uy-joylar harbiylar tomonidan baraklar shaklida barpo etildi [8].

O'zbekiston hukumatining 1959 yil sentyabrda 343-sonli qarori bilan Uchquduqqa shahar tipidagi posyolka maqomi berildi. Mazkur hududga 1960-61 yillarda 290 kmlik Karmana-Uchquduq temir yo'li qurildi, 60 km bo'lgan Mingbuloq-Uchquduq suv quvuri va 320 km. elektr liniyasi olib kelindi [9].

O'zbekiston hududida uran qazib oluvchi asosiy bo'linmalaridan biri bu 5-kon boshqarmasi edi. Mazkur uran qazib oluvchi korxonada 1971-yil 1 fevralda Leninobod kon-metallurgiya kombinatining tajriba-sanoat uchastkasi sifatida tashkil etilgan [10].

Uchquduqdagi uran konining ochilishidan keyin hudud bo'ylab olib borilgan geologik qidiruv ishlari yana ko'plab konlar ochilishiga sabab bo'ldi. Mazkur boshqarmaga qarashli "Istiqlol" ("Tohumet") koni 1958-yilda topilgan. Keyinchalik, ya'ni 1959-yilda "Shimoliy Bukinoy" va 1961-yilda Qoratog'dagi "Janubiy Bukinoy", 1978-yilda "Beshkak", 1976-yilda "Sugrali" uran konlari ochildi [11].

So'nggi 20 yilda "Shimoliy Konimex", "Aulbek", "Kuhnur", "Aksay-1", "Terequduq", "Janubiy Sugrali" kabi uran konlari ishga tushirildi. 1975

yilda hozirgi Konimex tumani hududidagi Kokcha ovuli yonida Zafarobod qo'rg'oni barpo etildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida kon boshqarmasi faoliyatida qiyinchiliklar paydo bo'ldi. Iqtisodiy tanglik vujudga keldi. Negaki, mazkur boshqarma sobiq Ittifoq davrida O'rta mashinasozlik vazirligiga qarashli Leninobod kon-kimyoy kombinati tarkibida edi. 1993-yilda 5-kon boshqarmasi Tojikistonning Leninobod kon-metallurgiya kombinatidan Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarkibiga o'tkazildi [12].

Kon boshqarma tarkibida o'n to'rtta uran konlarini o'zlashtirayotgan 4 ta geotexnologik konlar mavjud. 1- va 2-geotexnologik konlarida tayyor mahsulot chiqarish bilan birga mahsuldor eritmalar AR-0 markasidagi ammoniy perrenati shaklida reny olinmoqda. Boshqarmaga qarashli "Yog'du", "Kuhnur", "Janubiy Sugrali", "Shimoliy Konimex", "Teriquduq" kabi yangi konlarda oksidlanish reagentlarini tanlash, yangi uskunalarni sinab ko'rish hamda noqulay kon-geologik sharoitlardagi (qatlamlarning katta chuqurlikda joylashgani, yuqori karbonatlilik, yer osti suvlari haroratining yuqoriligi va boshqalar) uranni qazib chiqarishda kon ustini ochish va yer ostida eritib olishning samarali texnologiyalarini aniqlash maqsadida sinov va tajriba-sanoat ishlari olib borildi.

Yana bir uran koni bu - Samarqand viloyatining Nurobod tumani hududidagi "Sobirsoy" konidir. Mazkur kon 1964-yilda tashkil topgan. Bu yerda keyinchalik Sharq, Agron, Nurbuloq, Ulus kabi kichik uran konlari ishga tushirilgan [13].

1-gidrometallurgiya zavodi bugungi kunda mamlakatimizda uran chala oksidini ishlab chiqaradigan yagona zavoddir. Mustaqillik yillarida zavodda jismonan va ma'nan eskirgan asbob-uskunalar yangilandi hamda zamonaviy texnologik jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari va nazorat-o'lchov asboblari o'rnatildi. Natijada, uran chala oksidini ishlab chiqarish hajmi 30 foizga oshdi. Tayyor mahsulot sifati jahon standartlariga javob beradi va dunyoning turli mamlakatlariga eksport qilinadi. Mahsulot raqobatbardoshligi va uni yetkazib berishning ishonchiligi kombinatga jahon uran bozoriga kirishga hamda uran ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda beshinchi o'rinni egallashga imkon berdi.

Butunjahon yadro assotsiyatsiyasining ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda uran zaxiralari 6 mln 142 ming tonnadan ortiqroqdir. O'zbekiston o'zining 139 200 tonna uran zaxirasi bilan o'ninchi o'rinda. Uran chala oksidini ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatimiz 5-o'rinda turadi [14].

O'zbekistonda ishlab chiqarilgan uran chala oksidi "Itochu Corporation" (Yaponiya), "Marubeni Corporation" (Yaponiya), "Cameco Corporation" (Kanada), "Korea Hydro & Nuclear Power Co.Ltd." (Koreya Respublikasi), "CGNPC Uranium Resources Co.Ltd." (Xitoy) kabi xorijiy kompaniyalar va boshqa bir qator yirik qayta ishlash zavodlariga yetkazib beriladi.

2022 yil 1 yanvardan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" davlat korxonasi transformatsiya qilindi. Mamlakatimizda tabiiy uran va nodir metallarni qazib olish bo'yicha "Navoiyuran" davlat korxonasi tashkil etildi. Bu korxonada kelgusida mamlakatimiz iqtisodiyoti ravnaqi yo'lida muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshiradi.

Bibliografik ro'yxat:

1. Petruxin N.P. Uran qazib olish tarixi. – Moskva, 2020. 10-11, 109 betlar.
2. Kuznetsov A.A. Atom davri. Xronika va fotosurat. – M.: ROSATOM, 2020. – 19 bet.
3. Navoiy kon-metallurgiya kombinati. Yaratilish va rivojlanish tarixi. – T.: IPAK "Shark", 2002. – 11 bet.
4. Sanaqulov Q., Raupov X., Sadriddinov N. Yangilanayotgan O'zbekiston: Navoiy kon-metallurgiya kombinatining yangi tarixi. – T.: "SAHHOF", 2021. – 10 bet.
5. Sanaqulov Q. Yangi istiqbollar sari. – T.: "MASHHUR-PRESS", 2018. – 12 bet.
6. Sanaqulov Q., Raupov X., Sadriddinov N. O'zbekistonda kon-metallurgiya tarixi. – T.: "MASHHUR-PRESS", 2019. – 191 bet.
7. Kucherskiy N.I., Astvatsuryan G.G., Berdnikov E.A. va boshqalar. Navoiy kon-metallurgiya kombinati. Yaratilish va rivojlanish tarixi. Tahrir: Rizaev S.R. 14-323 betlar.
8. Asrga tatigulik yillar. Albom-kitob. Ma'sul muharrir X. Raupov. – T.: "SAHHOF", 2021, 14-82 betlar.
9. Sanaqulov Q., Raupov X., Sadriddinov N. O'zbekistonda kon-metallurgiya tarixi. – T.: "MASHHUR-PRESS", 2019. – 221 bet.
10. Sanaqulov Q. Yangi istiqbollar sari. – Toshkent: "MASHHUR-PRESS", 2018. – 54 bet.
11. Djulibekov N. Navoiy KMning turli rivojlanish bosqichlarida moliyaviy-iqtisodiy jihatlari. Monografiya. – T.: "SAHHOF", 2020. 83-86 betlar.



САГДИЕВА МУЯССАР ГАЙБУЛЛАЕВНА



В декабре 2022 года исполнится 75 лет со дня рождения и 50 лет с начала научно-исследовательской деятельности Сагдиевой Муяссар Гайбуллаевне – известному учёному, доктору биологических наук, профессору, руководителю Проекта «Биотехнология комплексной переработки техногенных отходов АО «Алмалыкский горно-металлургический комбинат» Института микробиологии АН РУз.

М.Г. Сагдиева родилась 18 декабря 1947 года в г. Карши Кашкарьинской области.

В 1965 г. Муяссар Гайбуллаевна закончила среднюю школу с серебряной медалью поступила на биолого-почвенный факультет Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова (МГУ).

В 1970 г. поступает в аспирантуру биолого-почвенного факультета МГУ, при этом выбрав тему диссертационной работы по вилту хлопчатника, чтобы быть востребованным учёным на своей Родине.

В 1974 г. успешно защищает кандидатскую диссертацию по теме «Пектолитические ферменты *Verticillium dahlia* Kleb, возбудителя вилта хлопчатника и возможные механизмы их подавления» и направляется на работу в Отдел, а позднее Институт биоорганической химии, созданный Президентом Академии наук УзССР академиком А.С. Садыковым. С 1974 г. в этом институте работает в должности младшего научного сотрудника лаборатории полифенолов по проблеме защиты хлопчатника от вилта, приносящего большой ущерб хлопководству в Средней Азии.

В 1977 г. её переводят на должность старшего научного сотрудника и руководителя группы по микробиологическому выщелачиванию золота.

В тот период в Узбекистане бурно развивается золотодобывающая промышленность, открываются новые золотосодержащие месторождения, руды которых относятся к золотосульфидным, и не подвергаются переработке классическими методами извлечения. В то же время в мире развиваются новые технологии, позволяющие перерабатывать упорные золотосодержащие руды с использованием микроорганизмов.

Таким образом, в 1977 г. Сагдиева М.Г. практически начинает новое направление в Узбекистане «Бактериально-химическое выщелачивание упорных золотосульфидных руд и концентратов Узбекистана».

Под руководством М.Г. Сагдиевой было проведено микробиологическое обследование практически всех золоторудных месторождений республики: Мурунтау, Кокпатас и Даугызтау, а также Зармитан Навоийского горно-металлургического комбината (НГМК), Кочбулак, Каульды, Пирмираб, Гузаксай и Марджанбулак производственного объединения «Узбекзолото».

Также было проведено микробиологическое обследование медьсодержащих полиметаллических руд месторождения Кальмакыр, отвальных забалансовых руд хвостов флотации медно-обогатительной фабрики (МОФ) АО «Алмалыкский горно-металлургический комбинат» (АГМК). Экспериментально было показано широкое разнообразие рудных микроорганизмов, законо-

мерности распространения их в различных месторождениях, роли микроорганизмов в процессах окисления сульфидных минералов и выщелачивании цветных, благородных и редких металлов. Основными заказчиками этих исследований являлись Навоийский горно-металлургический комбинат и ПО «Узбекзолото».

На основании проведенных исследований и перспектив данного направления в 1979 г. группа была реорганизована в первую в системе Академии Наук Республики Узбекистан (АН РУз) отраслевую лабораторию, заведующей которой была кандидат биологических наук Сагдиева М.Г.

В 1988 г. отраслевая лаборатория была переведена в Институт микробиологии АН РУз и переименована в лабораторию рудной микробиологии и биоготехнологии. Результаты проведенных исследований легли в основу докторской диссертации М.Г. Сагдиевой на тему: «Микроорганизмы золоторудных месторождений Узбекистана и их использование в извлечении благородных металлов», которая успешно была защищена в 1998 г.

Сагдиева М.Г. активно участвовала в работе ряда зарубежных, отечественных и республиканских симпозиумов, конгрессов, конференций, а также зарубежных поездок (Болгария, Германия, Соединенные штаты Америки, Южно-Африканская Республика, Чехословакия и другие), а так же были выполнены многочисленные проекты, хозяйственные работы с ПО «Узбекзолото», с Навоийским и Алмалыкским горно-металлургическими комбинатами. Кроме этих исследований были выполнены два международных гранта Украинского научно-технологического центра, в котором она являлась руководителем.

Сагдиевой М.Г. опубликовано: 240 публикаций, из них 112 статей (72 республиканских, 32 – СНГ, 8 – дальше зарубежье); 128 тезисов (82 республиканских, 32 – СНГ, 14 – дальше зарубежье); 4 авторских свидетельства и 2 патента.

Ею подготовлены 1 доктор технических наук и 3 кандидата биологических наук, 1 кандидат технических наук, 28 магистрантов и 125 бакалавров.

С 1998 г. по настоящее время она является членом Научного Совета по защите докторских диссертаций по специальностям: микробиология и биотехнология.

Награждена дипломом и премией ГКНТ РУз и юбилейной медалью в честь 20-летия и 30-летия Независимости Республики Узбекистан, нагрудными знаками «Горняцкая слава» III-степени, «Ветеран труда».

Руководство АО «НГМК», АО «АГМК», ГП «Навоийуран», НГГТУ, Институт Микробиологии АН РУз, ГУ «ИМР», ТГТУ им. И. Каримова, Алмалыкский филиал НИТУ «МИСИС», Алмалыкский филиал ТГТУ, ООО «O'zGEORANGMETLITI», редакция журнала «Горный вестник Узбекистана», а так же друзья и коллеги поздравляют Сагдиеву Муяссар Гайбуллаевну с 75-летним юбилеем и желают ей крепкого здоровья, дальнейших творческих успехов и плодотворной научной деятельности.



**МАЛЫШЕВ ЮРИЙ
НИКОЛАЕВИЧ**
(01.09.1939 – 05.09.2022 гг.)

На 84-м году жизни скончался советский и российский учёный, специалист в области горнодобывающей промышленности, академик РАН, президент Академии горных наук, Председатель Высшего Академического совета Евразийской Академии горных наук, Почётный президент НП «Горнопромышленники России», директор Государственного геологического музея им. В.И. Вернадского.

Юрий Николаевич Малышев – выдающийся учёный, которому удалось реструктурировать советскую угольную промышленность, оставил нас 5-го сентября.

Юрий Николаевич Малышев родился 1 сентября 1939 года в Воронеже, а вырос в Алма-Ате.

Трудовую деятельность начал в 1956 г. Прошёл все ступени большого профессионального пути – от подкатчика шахты треста «Прокопьевскуголь» до президента ОАО «Росуголь».

После окончания в 1963 г. Кемеровского горного института работал на инженерных и руководящих должностях ПО «Южжубассуголь».

В 1985 г. стал генеральным директором этого объединения.

В 1989 г. коллектив Института горного дела имени А.А. Скочинского на основе всесоюзного конкурса избрал Юрия Николаевича директором института, где он работал до 1993 г, при этом с 1992 г. являясь председателем Комитета по угольной промышленности Министерства топлива и энергетики Российской Федерации.

В 1993 г. распоряжением Совета министров СССР Ю.Н. Малышев назначен генеральным директором Государственного предприятия «Российская угольная компания» («Росуголь»).

В 1997 г., после преобразования компании в акционерное общество, стал её президентом и возглавил созданную Академию горных наук. С 1997 г. Юрий Николаевич руководил Союзом промышленников и предпринимателей угольной отрасли, а с 1999 по 2013 г. был президентом НП «Горнопромышленники России», по настоящее время являлся его Почётным президентом.

Академик Ю.Н. Малышев – видный учёный в области горных наук и разработки месторождений полезных ископаемых. Его научные интересы: научные основы создания интенсивной технологии подземной разработки мощных и средней мощности угольных пластов; методы обоснования рациональных технологических схем и параметров выемки пластов в различных горно-геологических условиях; направления совершенствования технологий подземной добычи угля с учётом особенностей развития научно-технического прогресса; научно-методический подход к вскрытию, подготовке и отработке шахтных полей самостоятельными участками, который используется проектными институтами угольной промышленности.

Выдающиеся заслуги и достижения Юрия Николаевича получили высокую оценку: он награжден орденами Почёта, «За заслуги перед Отечеством» III степени, «За доблестный шахтерский труд»,

знаком «Шахтерская слава» трёх степеней, золотым знаком «Горняк России», международной медалью Всемирного конгресса им. Круппинского, золотой медалью Дизеля – Немецкого института изобретений (ФРГ), Командорским крестом ордена «За заслуги перед Польской республикой», многими наградами общественных организаций. Он удостоен звания лауреата премии Совета министров СССР (1984 г.), премии Ленинского комсомола (1990 г.), Государственной премии Российской Федерации (1993 г.), премии Правительства Российской Федерации (2001 г.), а также звания «Почётный шахтёр». В 2016 г. за заслуги в развитии науки, образования, подготовке квалифицированных специалистов и многолетнюю плодотворную работу Юрий Николаевич награждён Орденом Дружбы.

Юрий Николаевич стал инициатором активного развития старейшего академического музея Москвы, как современного научного, информационного, просветительского, образовательного и культурного центра, объединяющего деятельность научных учреждений и производственных предприятий, работу образовательных и общественных организаций, стремление молодежи к горно-геологическим знаниям, экологии, наукам о Земле в целом. Эти задачи требовали изменений в системе работы музея, финансовых вложений. Проведена реконструкция здания, техническое оснащение, развитие новых для музея видов деятельности, вывод из забвения уникальных коллекций Государственного геологического музея им. В.И. Вернадского РАН. На его базе работают «Клуб юных геологов», учебная имитационная шахта «Академическая», активно развивается сотрудничество с регионами России и зарубежными странами, открыт современный информационный центр для работы с электронными ресурсами в области геологии, недропользования, экологии «Инфотека ГГМ РАН».

Ю.Н. Малышев автор более 160 научных работ, 50 патентов и изобретений. Малышев был членом редсоветов журналов «Уголь», «БЕРГ-Привилегии», Общественного совета Федеральной службы по экологическому, технологическому и атомному надзору, членом-корреспондентом Международной инженерной академии, заместителем председателя Международного организационного комитета Всемирного горного конгресса (МОК ВГК), членом Международного комитета по научным исследованиям в угольной промышленности и Международной инженерной академии Югославии.

Юрий Малышев – это историческая личность для угледобывающего комплекса.

Руководство АО «НГМК», редакция журнала «Горный вестник Узбекистана, а так же горно-металлургическая общественность Узбекистана выражает свои глубокие соболезнования родным и близким Юрия Николаевича Малышева.

МОДУЛЬНЫЕ ФАБРИКИ «SEPRO»



Оптимальная
конфигурация
Стабильные
показатели
Высокая
надёжность



Телефоны/ WhatsApp
для оперативной связи:
Узб. +998 91 162 1404
США +1 603 275 2000
СНГ +7 926 224 02 04



Инжиниринг
Проектирование
Изготовление
Поставка
Шеф-монтаж
Запуск



Simba E7

Буровые установки «Epiroc» для промышленного бурения при проведении подземных горных работ.